

OMMAVIY OFERTA –
“INTERNET BANKING iDBA” MASOFAVIY BANK XIZMATLARINI KO’RSATISH
TO’G’RISIDAGI SHARTNOMA

YURIDIK SHAXSLAR VA YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLAR UCHUN
(01.06.2022 yildan o’zgartirilgan va qo’shimcha kiritilgan Ommaviy Ofertaning versiyasi
(Bank Boshqaruvining 25.05.2022 yildagi IMG/LGD/HO/22/42 - sonli Bayonnomasi))

O’zgartirishlar haqida ma’lumot: Boshqaruvning 25.05.2022 yildagi IMG/LGD/HO/22/42-sonli Bayonnomasiga binoan muqaddimaning birinchi xatboshisi bilan to’ldirildi va o’zgartirildi (o’zgartirishlar 01.06.2022 yildan kuchga kiradi).

Ushbu hujjat “KDB Bank O’zbekiston” AJ (keyingi o’rinlarda - **Bank**) yuridik shaxslarga, shu jumladan kredit tashkilotlari hamda yakka tartibdagi tadbirkorlarga (keyingi o’rinlarda – **Mijoz**) O’zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 364 va 367 – moddalariga muvofiq masofadan turib “Internet Banking iDBA” xizmatlarini ko’rsatish to’g’risida Shartnoma tuzish taklifi, ya’ni ommaviy oferta hisoblanib, Bankning Internetdagi rasmiy sahifasi - www.kdb.uz da nashr etilgan.

O’zgartirishlar haqida ma’lumot: Boshqaruvning 25.05.2022 yildagi IMG/LGD/HO/22/42-sonli Bayonnomasiga binoan, muqaddima ikkinchi xatboshisi bilan to’ldirildi (o’zgartirishlar 01.06.2022 yildan kuchga kiradi).

Yuridik shaxslarga, shu jumladan kredit tashkilotlari hamda yakka tartibdagi tadbirkorlarga “Internet Banking iDBA” masofaviy bank xizmatlarini ko’rsatish to’g’risidagi shartnoma – Ommaviy Oferta (keyingi o’rinlarda – **Shartnoma**) O’zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 369 – moddasi 2 – qismiga muvofiq Mijoz tomonidan ommaviy oferta shartlarini qabul qilingandan so’ng tuzilgan, hamda Bank bilan Mijoz birgalikda – Shartnoma Tomonlari hisoblanadi.

Mijozning Bankka Internet Banking Tizimida foydalanuvchini ro’yxatdan o’tkazish uchun belgilangan tartibda to’ldirilgan va imzolangan arizani (keyingi o’rinlarda – **Ariza**) taqdim etishi, Bankning ushbu ommaviy ofertasini akseptlanishi, ya’ni Mijozning ushbu Shartnomani tuzishga roziligi hisoblanadi.

Mijozning Internet Banking Tizimida ro’yxatdan o’tish uchun taqdim etgan Arizasi, Mijozning Shartnoma shartlari, Shartnoma Ilovalari va Bank Tariflari bilan tanishganligi va ularga so’zsiz rozi ekanligini anglatadi.

Shartnoma shartlarini shakllantirishda O’zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga, jumladan qonunlar, qonunosti hujjatlari, O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki va boshqa davlat organlarining me’yoriy hujjatlariga (keyingi o’rinlarda – **Qonunchilik**) va Bankning ish yuritish ananalariga muvofiq shakllantirilgan va ular asosida tartibga solinadi.

Ayrim Bank xizmatlari ushbu Shartnoma bilan bir qatorda alohida shartnomalar va shartlar bilan tartibga solinadi, kelishmovchiliklar yuz bergan taqdirda alohida shartnomalar va shartlar amal qiladi.

1. TERMINLAR VA TAVSIFLAR

Bank – “KDB Bank O’zbekiston” AJ ning bosh ofisi va filiallari.

O’zgartirishlar haqida ma’lumot: Boshqaruvning 25.05.2022 yildagi IMG/LGD/HO/22/42-sonli Bayonnomasiga binoan Ommaviy Ofertaning 1-bobi quyidagi ta’rif bilan to’ldirilgan (o’zgartirishlar 01.06.2022 yildan kuchga kiradi).

"Internet Banking iDBA" masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish shartnomasi (**Shartnoma**) - Mijozni ushbu ommaviy oferta shartlariga qo'shilish yo'li bilan tuziladigan Bank va Mijoz o'rtasidagi shartnoma.

Bank hisobvarag'i shartnomasi – Mijoz tomonidan bank hisobvarag'I (joriy hisobvarag'i) bo'yicha, shu jumladan karta hisobi, kredit hisobi, omonatga (depozit) jalb qilingan pul mablag'larini hisobga olish va boshqa operatsiyalarni amalga oshirishida Bank va Mijozning munosabatlarini tartibga soluvchi shartnomalar.

Bank Tariflari – operatsiyalarni amalga oshirish va xizmatlarni ko'rsatish uchun Bank tomonidan tasdiqlangan va tegishli operatsiya vaqtida amal qiladigan tariflar.

Bankning rasmiy sahifasi – global kompyuter internet tarmog'iga www.kdb.uz manzili bilan kiritilgan Bankning sahifasi.

Elektron hujjat (keyingi o'rinlarda – **EH**) – bu elektron shaklda yozilgan, fayl shaklida yoki ma'lumotlar bazasi yozuvi shaklida taqdim etilgan, Tizimning dasturiy ta'minotidan foydalangan holda o'rnatilgan tartibda tayyorlangan va uzatilgan, Mijozning identifikatsiya ma'lumotlari bilan tasdiqlangan hujjat.

Elektron to'lov hujjati (keyingi o'rinlarda – **ETH**) – Mijozning Bankda ochilgan Hisobvarag'i orqali Bank operatsiyasini amalga oshirish to'g'risida Bankka elektron shaklda yuborilgan, Mijozning tegishli identifikatsiya ma'lumotlari bilan yaratilgan va tasdiqlangan Mijozning masofaviy topshirig'i.

Foydalanuvchi – Mijozning mas'ul xodimi, nomi Arizada ko'rsatilgan, tegishli ravishda Mijozning EH/ETH ni yaratish va o'tkazish uchun vakolatli va / yoki ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq Bank tizimiga kirish huquqiga ega shaxs.

Login (Foydalanuvchi Nomi) – Internet Banking Tizimida ro'yxatdan o'tayotganda Mijoz tomonidan tanlangan va uni ushbu Tizimda aniq identifikatsiyalovchi harf – raqamli belgilar to'plami;

Internet Banking Tizimi yoki Tizim - Bank tomonidan masofadan turib Bank xizmatlarini ko'rsatish va Bank bilan Mijoz o'rtasida o'zaro aloqani ta'minlaydigan dasturiy ta'minot, texnik vositalar hamda telekommunikatsiya tizimlaridan foydalangan holda Bank operatsiyalarini amalga oshirish texnologiyalari to'plami;

O'zgartirishlar haqida ma'lumot: Boshqaruvning 25.05.2022 yildagi IMG/LGD/HO/22/42-sonli Bayonnomasiga binoan "Operatsiya kuni" tushunchasi yangi tahrirda taqdim etilgan (o'zgartirishlar 01.06.2022 yildan kuchga kiradi).

Operatsiya kuni – Bank mijozning buyurtmalarini qabul qilish va qayta ishlash operatsiyalarini amalga oshiradigan vaqt davri. Operatsiya kunining davomiyligi Bankning ichki hujjatlari bilan belgilanadi.

Komprometatsiya (login, parol va / yoki OTP qurilmasini komprometatsiyasi) – foydalanilgan login, parol va / yoki OTP qurilmasi ma'lumotlarning xavfsizligini va maxfiyligini ta'minlashiga ishonchni yo'qotish.

O'zgartirishlar haqida ma'lumot: Boshqaruvning 25.05.2022 yildagi IMG/LGD/HO/22/42-sonli Bayonnomasiga binoan "Mijoz" tushunchasi yangi tahrirda taqdim etilgan (o'zgartirishlar 01.06.2022 yildan kuchga kiradi).

Mijoz – Bank bilan Shartnoma tuzgan va ushbu ommaviy oferta shartlarini qabul qilgan yuridik shaxs, shu jumladan kredit tashkiloti yoki yakka tartibdagi tadbirkor.

OTP (keyingi o'rinlarda - **OTP**) – Internet Banking Tizimiga har bir tashrifda bir martalik kirish parollarini (**one-time password**) yaratadigan, shuningdek Mijozning identifikatsiyasi va autentifikatsiyasini ta'minlaydigan maxsus qurilma;

Parol – Internet Banking Tizimida ro'yxatdan o'tayotganda Mijozning foydalanuvchi nomi (login) bilan bog'langan va Internet Banking Tizimida Mijozning autentifikatsiyasi uchun ishlatiladigan Mijoz tomonidan tanlangan harf – raqamli belgilar to'plami.

To'lov sessiyasi – Mijoz Tizimga kirish tafsilotlari yordamida Tizimga kirgan paytdan boshlab, Tizimdan chiqqunga qadar bo'lgan vaqt.

Vakolatli Shaxs – Mijozning chet el valyutasida bo'lgan elektron to'lov hujjatini tasdiqlash uchun Mijoz tomonidan vakolat berilgan shaxs. Amaldagi Qonunchilikka muvofiq Bankka taqdim qilingan Mijozning haqiqiy imzosi va muhr namunasi kartasida aloqa qiluvchi shaxsning ismi ko'rsatilishi kerak.

Bajaruvchi – Ma'lumotni ko'rish uchun Tizimga kirishga huquqiga ega, EH / ETH ni yaratish va ularni imzolash uchun 1-Avtorizatorga yuboruvchi.

1 – Avtorizator – Amaldagi Qonunchilikka muvofiq Bankka taqdim etiladigan Mijozning Imzo Na'munalar Kartasida ismi ko'rsatilgan, ushbu kirish imkoniyati Mijozning mas'ul xodimiga (Foydalanuvchiga) taqdim etiladi. Bajaruvchidan keyin EH / ETH ni avtorizatsiya qilish huquqiga ega foydalanuvchi.

2 – Avtorizator – Amaldagi Qonunchilikka muvofiq Bankka taqdim etiladigan Mijozning Imzo Na'munalar Kartasida ismi ko'rsatilgan, ushbu kirish imkoniyati Mijozning mas'ul xodimiga (Foydalanuvchiga) taqdim etiladi. 1-Avtorizatoridan keyin EH / ETH ni avtorizatsiya qilish huquqiga ega foydalanuvchi.

3 – Avtorizator – 2-Avtorizator tomonidan avtorizatsiya qilingan EH / ETH ni tasdiqlash uchun avtorizatsiya qilish huquqiga ega foydalanuvchi. Ushbu kirish darajasi Mijozning talabiga binoan taqdim etiladi.

Call-Back Avtorizatsiyasi – Bank tomonidan telefon orqali Mijozning vakolatli shaxsi bilan bog'langan holda chet el valyutasidagi elektron to'lov hujjatini qo'shimcha tasdiqlash tartibi.

Call-Back Avtorizatsiyasi uchun aloqa qilish ma'lumotlari – Call-Back Avtorizatsiyasini qilish uchun vakolatli shaxslar va ularning telefon raqamlari ro'yxati (Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga “Internet Banking iDBA” masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish to'g'risidagi Shartnoma– ommaviy ofertaga 2-Ilova).

Aloqa qilish uchun shaxs – Call-Back Avtorizatsiyasini bajarish uchun aloqa qilish ma'lumotlari ro'yxatida ko'rsatilgan Mijozning chet el valyutasidagi ETH ni tasdiqlash uchun Mijoz tomonidan vakolat berilgan shaxs.

Ushbu Shartnomada ishlatiladigan atamalar va ta'riflar Qonunchilikda mustahkamlangan yoki joriy amaliyotda qabul qilingan tegishli atamalar va ta'riflar ma'nosida ishlatiladi va talqin etiladi.

2. SHARTNOMA MAVZUSI

O'zgartirishlar haqida ma'lumot: Boshqaruvning 25.05.2022 yildagi IMG/LGD/HO/22/42-sonli Bayonnomasiga binoan Ommaviy Ofertaning 2.1-bandi yangi tahrirda taqdim etilgan (o'zgartirishlar 01.06.2022 dan kuchga kiradi).

2.1 Ushbu Shartnoma va Bank hisobvarag'i shartnomasida nazarda tutilgan shartlarda, Bank Mijozga Internet tarmog'iga kirish va tegishli texnik jihozlar, Internet-banking tizimida masofaviy bank xizmatlarini taqdim etadi.

2.2 Internet Banking Tizimiga kirish uchun Mijozning kirish identifikatsiya ma'lumotlari (login, parol va OTP qurilmasi) yordamida amalga oshirishi mumkin.

2.3 Login/Parol/OTP qurilmasi yordamida Internet Banking Tizimiga kirish Mijoz uchun Internet Banking Tizimida mavjud bo'lgan xizmatlarning to'liq ro'yxatidan foydalanish imkoniyatini beradi.

2.4 Login va Parol yordamida Internet Banking Tizimiga kirish Mijozga Internet Banking Tizimida mavjud bo'lgan xizmatlarning cheklangan ro'yxatidan foydalanish huquqini beradi.

2.5 Tomonlar o'rtasidagi munosabatlarda foydalanilgan, OTP qurilmasi yordamida imzolangan ushbu Shartnomada ko'zda tutilgan barcha axborotni muhofaza qilish tartib – qoidalarga muvofiq Tizim dasturiy ta'minoti yordamida tayyorlangan va uzatilgan ETH lar qonuniy ravishda qog'oz hujjatlarga teng ekanligini tan oladi.

2.6 Tomonlar foydalanilayotgan Internet Banking Tizimi axborotni qabul qilish, uzatish, qayta ishlash, shuningdek ma'lumotlarni saqlash maqsadida ushbu tizimga kirishni cheklashni, shifrlashni, ma'lumotlar bus-butunligini nazorat qilishni xavsiz amalga oshirilishini ta'minlashini, hamda OTP qurilmasi ruxsatisiz kirishdan himoya qilish, EH / ETH ning haqiqiyliigi va hujjat muallifini haqiqiyliigini tasdiqlash, shuningdek ular bo'yicha ziddiyatli vaziyatlarni tahlil qilish uchun etarli ekanligini tan oladilar.

O'zgartirishlar haqida ma'lumot: Boshqaruvning 25.05.2022 yildagi IMG/LGD/HO/22/42-sonli Bayonnomasiga binoan Ommaviy Ofertaning 2.7 – bandi yangi tahrirda taqdim etilgan (o'zgartirishlar 01.06.2022 dan kuchga kiradi).

2.7 Mijoz ushbu Shartnomada va Bank hisobvarag'i shartnomasida nazarda tutilgan shartlar asosida, amaldagi Bank Tariflariga muvofiq ko'rsatilgan xizmatlar uchun Bankka haq to'laydi.

2.8 Internet Banking Tizimiga kiritilgan xizmatlar ro'yxati, operatsiyalar, xizmatlar va funksiyalar to'plami, shuningdek Mijozning ularga kirish imkoniyati Bank tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi.

O'zgartirishlar haqida ma'lumot: Boshqaruvning 25.05.2022 yildagi IMG/LGD/HO/22/42-sonli Bayonnomasiga binoan Ommaviy Ofertaning 2.9 – bandi yangi tahrirda taqdim etilgan (o'zgartirishlar 01.06.2022 dan kuchga kiradi).

2.9 Internet Banking Tizimida xizmat ko'rsatish shartlari va tartibi ushbu Shartnomada, mazkur Shartnomaning 1, 2, 3, 4 va 5 – Ilovalarida hamda Bankning tasdiqlangan Tariflarida belgilanadi.

3. SHARTNOMA TUZISH

3.1 Ushbu Shartnomaning matni O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 369 – moddasi 2 – qismiga muvofiq ommaviy oferta (shartnoma tuzish to'g'risidagi taklif) ekanligiga asoslanib, Bank va Mijoz o'rtasida ushbu Shartnoma tuzilganligi sifatida Mijoz tomonidan ofertani akseptlanishi (shartnoma tuzish bo'yicha taklifni qabul qilish) deb tushuniladi.

3.2 Ofertani akseptlash Bank tomonidan tasdiqlangan shakldagi Arizani (ushbu Shartnomaga 4 – Ilova) Mijoz tomonidan Bankka imzolangan tarzda shaxsan taqdim etilishi orqali amalga oshiriladi;

3.3 Mijozning ushbu Shartnomani akseptlashi uning ushbu Shartnoma matni, uning Ilovalari va Bankning Tariflari bilan tanishganligini tasdiqlaydi. Mijoz ushbu Shartnomani akseptlash orqali, Shartnoma shartlarini, uning Ilovalari va Bank Tariflarini bajarish va ularga rioya qilish majburiyini tasdiqlaydi va tan oladi.

3.4 Mijoz ushbu Shartnomani akseptlashda, Tizimda tegishli tasdiqlash yoki yuborish tugmasini bosish, shuningdek Tizimdagi boshqa tugmalarni bosish Mijozning o'z qo'li bilan qo'ygan imzosiga teng deb hisoblanishini tan oladi, Bank ham shunga o'z roziligini bildiradi.

3.5 Mijozning ushbu Shartnoma matni, unga Ilovalar va Bank Tariflari bilan tanishtirish imkoniyati quyidagi usullardan birida taqdim etiladi:

- Bankning www.kdb.uz rasmiy veb – sahifasida (keyingi o'rinlarda – Bank veb – sahifasida) ushbu Shartnomaning matnini, unga Ilovalarni va Bank Tariflarini joylashtirish orqali;
- ushbu Shartnomaning matnini, uning Ilovalarini va Bank Tariflarini Bank filiallarida, shu jumladan Toshkent shahar, Buxoro ko'chasi 3-uyda joylashgan Bankning bosh ofisida joylashtirish orqali;
- Bank tomonidan belgilangan boshqa usullar orqali.

4. MIJOZGA XIZMAT KO'RSATISH TARTIBI VA SHARTLARI

4.1 Mijoz Internet Banking Tizimiga yozma Arizasi asosida ulanadi, unda Mijozning hisobvaraqlar / hisobvaraqlari, Mijozning mas'ul xodimlarining lavozimi bo'yicha taqsimlangan ro'yxati (Bajaruvchi, 1 – Avtorizator, 2 – Avtorizator, 3 – Avtorizator), Mijozning mas'ul xodimlarining vakolatlarini tasdiqlovchi hujjatlar, shuningdek ularning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar va Bankning ko'rsatmasiga binoan boshqa ma'lumotlar ko'rsatiladi.

4.2 Ushbu Shartnomaga binoan, Tizimda tegishli xizmatlar mavjudligini hisobga olgan holda, Mijozga ushbu Shartnomaning 1 – Ilovasida ko'rsatilgan xizmatlar ko'rsatilishi mumkin.

4.3 Mijozga Internet Banking Tizimining bitta va / yoki barcha xizmatlarini taqdim etish uchun asos Internet Banking Tizimida foydalanuvchini ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi tegishli Arizasi hisoblanadi.

4.4 Mijozga Internet Banking Tizimining bitta va / yoki barcha xizmatlarini vaqtincha to'xtatish / tugatish uchun asos Mijozning Internet Banking Tizimining xizmatlaridan voz kechish to'g'risidagi tegishli yozma Arizasi hisoblanadi.

4.5 Internet Banking Tizimidagi xizmatlar Mijozga Internet orqali masofadan turib shaxsiy kompyuter va Mijozning boshqa qurilmalari yordamida taqdim etiladi. Internet Banking Tizimi orqali hisobvaraqlar / hisobvaraqlarga kirish uchun har bir Foydalanuvchi Bankda identifikatsiya ma'lumotlari: foydalanuvchi nomi va parolni o'z ichiga olgan konvertni oladi.

O'zgartirishlar haqida ma'lumot: Boshqaruvning 25.05.2022 yildagi IMG/LGD/HO/22/42-sonli Bayonnomasiga binoan Ommaviy Ofertaning 4.6 – bandi yangi tahrirda taqdim etilgan (o'zgartirishlar 01.06.2022 dan kuchga kiradi).

4.6 Tizimda foydalanuvchini ro'yxatdan o'tkazish uchun so'rovlar, arizalar jo'natish yoki hisobvarag'i / hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish va / yoki konversiya operatsiyalarni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lgan holda Ariza taqdim etilgan taqdirda, Mijoz Bankdan OTP qurilmasini sotib olishi kerak.

4.7 OTP qurilmasi taqdim etilganda, Mijoz amaldagi Bank Tariflariga muvofiq Bankga ushbu qurilmaning narxini to'laydi.

4.8 Mijozning lavozimi bo'yicha taqsimlangan mas'ul xodimlari (Bajaruvchi, 1 – Avtorizator, 2 – Avtorizator, 3 – Avtorizator) OTP qurilmasini topshirish va qabul qilish dalolatnomasi ostida olishlari shart (ushbu Shartnomaga 5 – Ilova).

4.9 Mijoz foydalanuvchini ro'yxatdan o'tkazish uchun Bankka ariza berganidan so'ng, Tizimga kirish uchun identifikatsiya ma'lumotlarini (login, parolni), OTP qurilmasini (agar kerak bo'lsa) Bankdan qabul qiladi va Xizmat ko'rsatish qoidalari (ushbu Shartnomaga 3 – Ilova) bilan tanishgandan so'ng Mijoz Tizimda xizmat ko'rsatish huquqini oladi.

O'zgartirishlar haqida ma'lumot: Boshqaruvning 07.06.2021 yildagi 45 – sonli Bayonnomasiga binoan Ommaviy Ofertaning 4.10 – bandi yangi tahrirda taqdim etilgan (o'zgartirishlar 21.06.2021 dan kuchga kiradi)

4.10 Tomonlar Internet Banking Tizimiga kirish uchun 1 – Avtorizator va 2 – Avtorizatorning identifikatsiya ma'lumotlari (login, parol, OTP qurilmasi) Mijozning imzo na'munalari kartasida ko'rsatilgan vakolatli shaxslarning qo'lda qo'yilgan imzolari bilan tengligini tan oladilar.

4.11 OTP qurilmasi Mijozning mas'ul xodimiga topshirilgan paytdan boshlab tegishli OTP qurilmasi tomonidan tasdiqlangan va Internet Banking Tizimi orqali olingan har qanday ETH Mijoz tomonidan to'g'ri yuborilgan deb hisoblanadi va ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq Bank tomonidan bajarilishi lozim.

4.12 Tomonlar OTP qurilmasidan foydalangan holda Internet Banking Tizimi orqali Bankka ijro uchun yuborilgan Mijozning ETH / ETH lari Qonunchilikka muvofiq tuzilgan Mijoz tomonidan qog'oz shaklida olib kelingan, Bank Hisobvarag'i Shartnomasiga muvofiq Mijozning hisobvarag'ini / hisobvaraqlarini boshqarish vakolatiga ega shaxs tomonidan shaxsan imzolangan hujjatga analog hisoblanadi.

O'zgartirishlar haqida ma'lumot: Boshqaruvning 07.06.2021 yildagi 45 – sonli Bayonnomasiga binoan Ommaviy Ofertaning 4.13 va 4.14 – bandlari yangi tahrirda taqdim etilgan (o'zgartirishlar 21.06.2021 dan kuchga kiradi).

4.13 Mijozning ETH si foydalanuvchi / foydalanuvchilarning OTP qurilmasi / qurilmalari tomonidan tasdiqlanishi kerak. Bu holda Mijozning ETH dagi chet el valyutasidagi summasi, belgilangan 10,000.00

(o'n ming) AQSH dollaridagi yoki boshqa chet el valyutasidagi ekvivalenti chegara qiymatidan oshib ketsa, faqat muvaffaqiyatli Call-Back Avtorizatsiyasidan so'ng Bank tomonidan amalga oshiriladi.

4.14 Call-Back Avtorizatsiyasi uchun chet el valyutasidagi bitta ETH dagi summaning chegara qiymati Bank tomonidan mustaqil ravishda yoki mijozning alohida taqdim etilgan yozma so'roviga muvofiq belgilanadi.

4.15 Mijoz tomonidan yuborilgan ETH / EH ro'yxati va shakllari Internet Banking Tizimida joylashtirilgan va ular Tizim va xizmat turlarining rivojlanishi davomida o'zgarishi mumkin.

4.16 ETH / EH bank tomonidan ish kunlarida ushbu Shartnomaning 1 – Ilovasida belgilangan Tizimdagi xizmatlar ro'yxati va xizmatlar jadvaliga muvofiq ijrosi ta'minlanadi.

4.17 Mijozga ETH / EH ni qayta ishlash va ijro etish natijalari, yoki uni qayta ishlash va ijro etishni rad etish to'g'risidagi ma'lumotlar Internet Banking Tizimidagi to'lov hujjatining holat satrida aks etadi.

4.18 Bank Mijozga pul oqimlari to'g'risidagi hisobotlarni va Mijozning hisobvarag'idagi / hisobvaraqlaridagi qoldiqlarni qog'oz shaklida Mijozga xizmat ko'rsatiladigan filialda oyiga doimiy ravishda bir marotaba yoki Mijoz tomonidan tanlangan oraliq muddatlarda taqdim etadi.

4.19 Tizimda yaratilgan, lekin Mijoz tomonidan avtorizatsiya qilinmagan ETH / EH, Mijoz tomonidan ETH / EH ni avtorizatsiya qilingunga qadar Mijoz tomonidan o'chirilishi yoki rad etilishi mumkin.

4.20 Mijoz tomonidan ETH avtorizatsiya qilinganida va yakuniy – Mijozning hisobvarag'idan / hisobvaraqlaridan mablag' chiqarilganda, Mijoz uchun ETH qaytarib bo'lmaydigan holatida bo'ladi.

4.21 Internet Banking Tizimi orqali qabul qilingan ETH / EH ni qayta ishlash va rasmiylashtirish, Bankning ish vaqtida va Bankning me'yoriy hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi, bundan tashqari, Internet Banking Tizimida kecha kunduz mavjud bo'lgan bir qator avtomatik funksiyalar bundan mustasno.

4.22 Quyidagi holatlarda Bank Mijozning Tizimga kirishini vaqtincha yoki butunlay to'xtatadi:

- Internet Banking Tizimi orqali xizmat ko'rsatishga ulangan hisobvaraqlar / hisobvaraqlar yopilganda;
- Kirish ma'lumotlarini (login, parol, OTP qurilmasi parolini) kiritish uchun ketma-ket 5 (besh) bora muvaffaqiyatsiz urinishlarni amalga oshirganda;
- Taqdim etilgan xizmatlar uchun Mijozning Bank oldida qarzi bo'lganda;
- Tizim bilan ishlashda texnik nosozliklar paydo bo'lganda;
- Dasturiy ta'minotni o'zgartirish va profilaktik xizmat ko'rsatganda;
- Ushbu Shartnomadan foydalanish bilan bog'liq munozarali vaziyat yuzaga kelganda;
- Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda.

4.23 Mijozning shikoyatlari va da'volarini yuborish / qabul qilish tartibi, ularni ko'rib chiqish shartlari va qarorlari Qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi;

4.24 Mijozlarga xizmat ko'rsatish telefon raqami: +99878 120 80 00.

5. TARAFLARNING HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI

Bank quyidagi huquqlarga ega:

5.1 "Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurash bo'yicha ichki nazorat qoidalari"ga muvofiq Mijoz tomonidan Internet Banking Tizimidan foydalangan holda shubhali operatsiyalar amalga oshirilganligi aniqlanganda, Bank Mijoz tomonidan amalga oshirilgan amaliyotlarning qonuniyligini tasdiqlovchi yozma tushuntirish berilguniga qadar Mijozning Internet Banking Tizimidan foydalanish huquqini vaqtincha to'xtatib turishi yoki xizmat ko'rsatishni rad etishi

mumkin. Mijoz tomonidan amalga oshirilgan amaliyotlarning qonuniyligini tasdiqlovchi yozma tushuntirish taqdim etilmagan taqdirda, Bank ushbu Shartnomani bir tomonlama bekor qilish huquqiga ega.

5.2 Internet Banking Tizimidan foydalangan holda shubhali operatsiyalarni amalga oshirilganligiga gumon tug'lsa, Bank Mijozni / Mijozning mas'ul xodimini turgan manzilini (pochta manzili) yoki Mijozning Bank hujjatlarida ko'rsatilgan manzilini tekshirish, shu jumladan Shartnomada ko'rsatilgan shaxs tomonidan operatsiyalarni amalga oshirish jarayonini o'rganish huquqiga ega.

5.3 Tizimda xizmat ko'rsatish shakllari va shartlarini, Tizimga kiritilgan operatsiyalar, xizmatlar va funksiyalar to'plamini, Mijozning Tizimning ma'lum bir shakli / funksiyasiga kirish qobiliyatini mustaqil ravishda aniqlash va o'zgartirish, operatsiyalar bo'yicha umumiy chegaralarni belgilash / o'zgartirish.

5.4 Mijozning mablag'larini himoya qilish maqsadida, agar bir ETH summasi Bank tomonidan ushbu Shartnomaning 4.2 bandiga muvofiq belgilangan chegara qiymatidan oshib ketgan bo'lsa, Bank Mijozdan qo'shimcha tasdiqlashni (Call-Back Avtorizatsiyasi) talab qilishga haqli.

5.5 Agar Call-Back Avtorizatsiyasi natijasida Bank ushbu Shartnomaning 2 – Ilovasida ko'rsatilgan Mijozning vakolatli shaxslarining telefon raqamlari orqali murojaat qila olmasa yoki Mijozning mablag'lariga firibgarlikka urinish haqida Bank tomonidan shubha tug'lsa, Bank ETH ning bajarilishini to'xtatib qo'yish / kechiktirish huquqiga ega, Mijoz tomonidan qo'shimcha tasdiqnoma Bank tomonidan belgilangan tartibda qabul qilingunga qadar va amaldagi operatsion kunning oxiridan kechiktirmay holda;

5.6 Bank Mijozdan ushbu Shartnomaning 2 – Ilovasida nazarda tutilganidek, telefon orqali tasdiqlash uchun ma'lumot taqdim etishni talab qilishga haqlidir, bu esa Mijoz uchun chet el valyutasidagi ETH ning Call-Back Avtorizatsiyasi orqali amalga oshirish uchun zarur.

5.7 Mijozdan amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda amalga oshirilgan operatsiyalarning qonuniyligini va iqtisodiy maqsadga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishni taqdim etish. O'zgartirishlar haqida ma'lumot: [Boshqaruvning 07.06.2021 yildagi 45 – sonli Bayonnomasiga binoan Ommaviy Ofertaning 5.8 – bandi 3 – xatboshi yangi tahrirda taqdim etilgan \(o'zgartirishlar 21.06.2021 dan kuchga kiradi\).](#)

O'zgartirishlar haqida ma'lumot: [Boshqaruvning 25.05.2022 yildagi IMG/LGD/HO/22/42-sonli Bayonnomasiga binoan Ommaviy Ofertaning 5.8 – bandi 5 – band bilan to'ldirildi \(o'zgartirishlar 01.06.2022 yildan kuchga kiradi\).](#)

5.8 Quyidagi holatlarda Mijozga Internet Banking Tizimi orqali operatsiyalar bajarishga rad etiladi:

- Mijoz tomonidan bajarilayotgan operatsiya rekvizitlarini to'liq bo'lmagan / noto'g'ri ko'rsatilishi;
- Uni amalga oshirish muddatini buzish;
- Amalga oshirilgan operatsiyaning Qonunchilik qoidalariga, shuningdek “Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurollarining tarqalishini moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidalari”ga mos kelmasligi;
- Operatsiyani bajarish va / yoki amalga oshirilgan operatsiya uchun Bank xizmat haqini to'lash uchun Mijozning hisobvarag'ida / hisobvarag'larida mablag' yetishmasligi;
- Ish haqi bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish maqsadida korporativ plastik kartalar va jismoniy shaxslarning kartalarini (ish haqi loyihasi bo'yicha) to'ldirish uchun ochilgan Mijozga tegishli maxsus tranzit hisobraqamda ish haqi hisob-kitoblarini amalga oshirish uchun pul mablag'larining yetarli emasligi. Bunday holatda Bank Mijozni xabardor qilmagan holda bir tomonlama tartibda amalga oshirilmagan ish haqi hisob-kitoblarini o'chirib yuborish huquqiga ega;
- Qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa holatlarda.

5.9 Bank Tariflari va Mijozning Arizasi asosida Mijozga Internet Banking Tizimida operatsiyalarni amalga oshirish vaqtida xizmatlar ko'rsatilganligi uchun akseptsiz (Mijozning roziligisiz) Bankning xizmat haqini yechib olish. Shuningdek, Mijozning hisobvarag'iga / hisobvaraqlariga noto'g'ri kirim qilinganligi aniqlangan mablag'larni qaytarish, Qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa holatlarda ham.

5.10 Ushbu Shartnoma shartlari va Internet Banking Tizimida xizmat ko'rsatish bo'yicha Bank Tariflarini Mijozlarni avvaldan habardor qilgan holda o'zgartirish. Bunda kiritilayotgan o'zgartirishlar to'g'risidagi ma'lumotlar ushbu o'zgartirishlar kuchga kirishidan 10 (o'n) kalendar kun avval Bankning rasmiy veb sahifasi - www.kdb.uz da ma'lumot joylashtirish orqali, Internet Banking Tizimidagi bildirishnoma orqali, Bank filiallaridagi ma'lumotlar burchagida ma'lumot joylashtirish orqali taqdim etiladi.

5.11 Mijozga tegishli foydalanuvchi logini, paroli komprometatsiyasiga shubha tug'ilgan taqdirda, shuningdek Xizmat ko'rsatish qoidalari (Ushbu Shartnomaga 3- Ilova)ning 5 – qismida nazarda tutilgan holatlarda Bank Mijozga tegishli foydalanuvchi logini, parolini bloklaydi.

5.12 Bank Mijoz bilan EH / ETH almashinuvini texnik nosozliklar yuzaga kelganda, Qonunchilikka kiritilgan o'zgarishlar tufayli EH / ETH larni almashish imkonsiz yoki nomaqbul bo'lsa to'xtatib turish huquqiga ega.

5.13 EH / ETH larni shakllatirishida xatoliklar bo'lsa, yoki EH / ETH larni ijro etilishi amaldagi Qonunchilikka zid bo'lsa, bu haqida Bank Mijozga EH / ETH ni qabul qilgan kundan boshlab bir kun ichida xabar bergan holda ularni ijroga qabul qilmaslik huquqiga ega.

5.14 Bank Qonunchilikda, ushbu Shartnomada, Shartnomaning Ilovalarida, shuningdek Bank va Mijoz o'rtasida tuzilgan boshqa Shartnomalarda nazarda tutilgan boshqa huquqlardan foydalanishi;

5.15 Mijoz ushbu Shartnoma shartlarini buzgan, shuningdek, Qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda Bank ushbu Shartnomani bir tomonlama bekor qilishi mumkin.

Mijozning huquqlari:

5.16 Tizimdan ushbu Shartnomada nazarda tutilgan tartibda va shartlarda foydalanish.

5.17 Tizimdan foydalangan holda operatsiyalarni amalga oshirish, hamda ushbu Shartnoma va uning Ilovalariga muvofiq Bankning boshqa xizmatlaridan foydalanish.

5.18 Internet Banking Tizimiga ruxsatsiz kirish yoki ruxsatsiz kirishga urinishlar aniqlanganda mas'ul xodimlarning identifikatsiya ma'lumotlari (login, parol)ni bloklash talabi bilan Bankka murojaat qilish.

5.19 Zaruratga ko'ra Internet Banking Tizimi orqali ijro etilgan to'lov topshiriqnomalarining qog'oz shaklidagi tasdiqlangan nusxalarini hamda talab qilingan davr uchun hisobvaraqlaridagi harakatlar bo'yicha ko'chirmalarni Bankdan olish;

O'zgartirishlar haqida ma'lumot: Boshqaruvning 07.06.2021 yildagi 45 – sonli Bayonnomasiga binoan Ommaviy Ofertaning 5.20 – bandi yangi tahrirda taqdim etilgan (o'zgartirishlar 21.06.2021 dan kuchga kiradi).

5.20 Mijozning alohida yozma Arizasi asosida bitta operatsiya uchun limitlarni belgilash;

O'zgartirishlar haqida ma'lumot: Boshqaruvning 07.06.2021 yildagi 45 – sonli Bayonnomasiga binoan Ommaviy Ofertaning 5 – bo'limida 5.20.1 va 5.20.2 - bandlari yangi tahrirda taqdim etilgan (o'zgartirishlar 21.06.2021 dan kuchga kiradi).

5.20.1 Shartnomaning 4.13 – bandiga muvofiq ravishda Bank tomonidan belgilangan va Bank tomonidan Call-Back Avtorizatsiyasi uchun belgilangan chet el valyutasidagi bitta ETH dagi summaning chegara qiymati Mijozning alohida taqdim etilgan yozma so'roviga muvofiq o'zgartiriladi.

5.20.2 Alohida yozma so'rov asosida (ketma-ket 12 oy mobaynida ketma-ket 3 (uch) oydan ko'p bo'lmagan) holda tizimdan foydalanishni uzoq vaqt davomida to'xtatib turish.

Butun davr davomida ushbu Shartnoma bekor qilinmaydi, Tizimdan foydalanganlik uchun oylik komissiya olinmaydi, ammo Mijoz Tizimdan faqat “Ko’rish” darajasida foydalanish huquqiga ega bo’ladi.

Bu holda, agar Tizimdan foydalanmaslik muddati joriy oyning 15 – kunidan keyin boshlangan bo’lsa, joriy oy uchun Tizimdan foydalanganlik uchun oylik to’lov to’liq miqdorda olinadi.

Agar Tizimdan foydalanmaslik muddati joriy oyning 15-kunidan oldin boshlangan bo’lsa, joriy oy uchun oylik to’lov Mijozning talabida ko’rsatilgan muddatning oxirgi oyida olinadi.

5.21 Mas’ul xodimlarning identifikatsiya ma’lumotlarini o’zgartirish (login, parol);

5.22 Ushbu Shartnomaga, uning Ilovalariga, shuningdek Bank va Mijoz o’rtasida tuzilgan boshqa shartnomalarga muvofiq boshqa huquqlardan foydalanish.

O’zgartirishlar haqida ma’lumot: Boshqaruvning 07.06.2021 yildagi 45 – sonli Bayonnomasiga binoan Ommaviy Ofertaning 5 – bo’limida 5.22.1 - bandi yangi tahrirda taqdim etilgan (o’zgartirishlar 21.06.2021 dan kuchga kiradi).

5.22.1 Agar Bank Mijozning hisobvarag’idan mablag’ chiqarish yoki Mijozga tegishli mablag’ni kreditlash bo’yicha Qonunchilikda belgilangan muddatlarni buzsa, Mijoz Bankdan summaning 0,1 foizi miqdorida jarima to’lashni talab qilishga haqlidir. Kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to’lov, lekin kechiktirilgan to’lov miqdorining 10 foizidan ko’p bo’lmagan miqdorda.

Bank majburiyatlari:

5.23 Mijozning mas’ul xodimlarini Bank taqdim etgan Mijozning Arizasiga binoan Internet Banking Tizimida ro’yxatdan o’tkazish.

5.24 Mijozning ushbu Shartnomada belgilangan tartibda foydalanuvchini ro’yxatdan o’tkazish to’g’risidagi Arizasiga binoan Mijozga Tizimda mavjud xizmatlar va funksiyalar bo’yicha xizmat ko’rsatish.

5.25 Mijozning hisobvarag’ida o’tkazilgan operatsiyalar to’g’risida Bank sirini saqlash va ular to’g’risidagi ma’lumotlarni faqat Qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda taqdim etish.

5.26 Mijozning OTP qurilmasi yo’qolganligi yoki unga boshqa shaxslar tomonidan ruxsatsiz kirish amalga oshirilganligi to’g’risida yozma ravishda xabar berganidan so’ng, Mijozning hisobvaraqlaridagi operatsiyalarni to’xtatib turish.

5.27 Mijozning yozma talabiga binoan Mijozning mas’ul xodimlariga rasmiylashtirilgan foydalanuvchi(lar) nomlarini bloklash.

5.28 Mijozning ushbu Shartnoma shartlariga va Internet Banking Tizimi Xizmat ko’rsatish qoidalariga muvofiq shakllantirilgan, hamda Tizim orqali yuborilgan EH / ETH ni ijroga qabul qilish.

5.29 Mijozdan Internet Banking Tizimi orqali qabul qilingan EH / ETH asosida operatsiyalarni o’tkazish yoki ularni qayta ishlash imkoniyati mavjud bo’lmagan, yoki ularni ijro etish rad etilganligi to’g’risida Mijozga xabar berish.

5.30 Ushbu Shartnoma tuzilgan kundan boshlab 1 (bir) yil ichida OTP qurilmasi ishlamay qolsa, Mijozning Bankka yozma murojaatidan so’ng OTP qurilmasini yangi OTP qurilmasiga bir marta bepul almashtirish.

5.31 Mijozga telefon orqali texnik yordam ko’rsatish va Mijozga Internet Banking Tizimidan to’g’ri foydalanish to’g’risida maslahat berish.

5.32 Tizimning to’g’ri va uzluksiz ishlashini ta’minlash uchun zarur va yetarli bo’lgan barcha choralarni ko’rish, hamda ushbu Shartnomaga binoan Bank zimmasiga olgan majburiyatlarga muvofiq uni tegishli darajada ta’minlashni o’z zimmasiga olish.

5.33 Qonunchilikda, Bank va Mijoz o’rtasida tuzilgan ushbu Shartnomada, Xizmat ko’rsatish qoidalari va boshqa Shartnomalarda nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarish.

Mijoz majburiyatlari:

- 5.34 Internetga xavfsiz kirish imkoniyatini ta'minlovchi dasturiy ta'minot va qurilmalarga ega bo'lish;
- 5.35 OTP qurilmasi uchun Bankka komissiya to'lovini, Tizimdan foydalanganlik uchun oylik komissiyani Bankning amaldagi Tariflariga muvofiq amalga oshirish.
- 5.36 EH / ETH ni tayyorlash uchun amaldagi qonun hujjatlariga va Bank ko'rsatmalarida belgilangan talablarga rioya qilish.
- 5.37 Bankka aniq va bir ma'noli mazmunda tuzilgan, noto'g'ri talqin qilinishi mumkin bo'lmagan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan EH / ETH ni yuborish.
- 5.38 Mijoz tomonidan EH / ETH avtorizatsiyasidan so'ng darhol Tizimda EH / ETH ning ijro holatini tekshirish. Har qanday xatolik, takroriy nusxalar, tafovutlar yoki kamchiliklar haqida Mijoz EH / ETH yuborilgan ish kuni davomida Bankka xabar berishi lozim.
- 5.39 Tizim orqali qabul qilingan barcha ma'lumotlarni ular qabul qilingan kundan boshlab 3 (uch) ish kuni ichida tekshirish. Har qanday xatolar, tafovutlar yoki kamchiliklar haqida Mijoz ma'lumotlar yuborilgandan kundan 3 (uch) ish kuni ichida Bankka xabar berishi lozim. Agar 3 (uch) ish kuni ichida Mijozning biron bir Arizasi qabul qilinmasa, uzatilgan ma'lumotlar Mijoz tomonidan to'g'ri, aniq va to'liq deb tasdiqlangan hisoblanadi.
- 5.40 Ushbu Shartnomaning 3 – Ilovasida belgilangan Xizmat ko'rsatish qoidalariga amal qilish.
- 5.41 Bankka barcha o'zgarishlar haqida, shu jumladan Tizimda ishlashga biriktirilgan Mijozning mas'ul xodimlarining ishdan bo'shatilishi va/yoki ular o'zgartirish to'g'risidagi ma'lumotlarni, ushbu xodimlar nomiga Tizimga kirish uchun rasmiylashtirilgan foydalanuvchi nomlarini bloklash uchun yozma yoki EH shaklidagi murojaatni, ushbu o'zgarishlar kiritilgan kundan keyingi ish kundan kechiktirmagan holda taqdim etish.
- 5.42 Mijozning Internet Banking Tizimi orqali qabul qilingan chet el valyutasida Mijozning ETH sini tasdiqlash vakolatiga ega bo'lgan ushbu Shartnomaning 2 – Ilovasida ko'rsatilgan Mijoz vakolatli xodimining ishdan bo'shatilishi va / yoki o'zgartirishi, shu jumladan, barcha o'zgarishlar to'g'risida bankka xabar berishi o'zgarishlar kiritilgan kundan boshlab keyingi ish kundan kechiktirmagan holda taqdim etish.
- 5.43 Tizimda ishlashga tayinlangan yangi Foydalanuvchilar almashtirilganda yoki tayinlangan taqdirda, Tizimga Foydalanuvchini ro'yxatdan o'tkazish uchun Ariza, shuningdek ushbu shaxslarning vakolatlari / huquqlarini tasdiqlovchi va ularning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarni Bankka taqdim etish.
- 5.44 EH / ETH almashinuvida ma'lumotlarni qayta ishlash, saqlash va himoya qilish tizimlarini xizmatga yaroqli hamda kompyuter viruslaridan holi bo'lgan shaxsiy kompyuterlarda qo'llash.
- 5.45 Foydalanuvchining kirish ma'lumotlarini (login, parol) va Foydalanuvchining OTP qurilmasini uchinchi shaxslarga bermaslik va Tizimga boshqa shaxslarga kirishini ta'minlamaslik, faqat o'zlarining rasmiy vazifalariga muvofiq Tizimga kirish huquqiga ega bo'lgan Mijozning tegishli ichki buyrug'i bilan ishlaydigan xodimlari bundan mustasno.
- 5.46 Foydalanish vaqtida identifikatsiya ma'lumotlarini (login, parol) maxfiylikni va OTP qurilmasining xavfsizligini ta'minlash (uchinchi shaxslar ixtiyoriga o'tib qolishni oldini olish).
- 5.47 Tizimga ruxsatsiz kirish yoki ruxsatsiz kirishga urinishlar aniqlanganligi, shuningdek, foydalanuvchining kirish ma'lumotlari (login, parol, OTP qurilmasi) yo'qolgan yoki o'g'irlangan holatlar to'g'risida zudlik bilan Bankni xabardor qilish.
- O'zgartirishlar haqida ma'lumot: Boshqaruvning 07.06.2021 yildagi 45 – sonli Bayonnomasiga binoan Ommaviy Ofertaning 5.48 – bandi yangi tahrirda taqdim etilgan (o'zgartirishlar 21.06.2021 dan kuchga kiradi).
- 5.48 Bankni OTP qurilmasi yo'qolganligi to'g'risida darhol yozma ravishda xabardor qilish, og'zaki xabar berish holatlarida (telefon orqali) OTP qurilmasi yo'qolgan paytdan boshlab 1 (bir) ish kuni ichida

uni yozma ravishda tasdiqlash. Bunday xabar berilgan paytdan boshlab Foydalanuvchi Tizimdan foydalanish imkoniyati Mijozga yangi OTP qurilmasi berilguniga qadar to'xtatiladi.

5.49 Bank tomonidan taqdim etiladigan xizmatlardan noqonuniy maqsadlarda foydalanmaslik, shu jumladan jinoyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qaratilgan harakatlar / operatsiyalarni amalga oshirmaslik.

5.50 Zarur bo'lganda, Bankning iltimosiga binoan 3 (uch) kun ichida Internet Banking Tizimidan foydalangan holda amalga oshirilgan operatsiyaning qonuniyligi va iqtisodiy maqsadga muvofiqligini tasdiqlovchi tegishli shartnomalarning (boshqa hujjatlarning) nusxalarini Qonunchilikka muvofiq taqdim etish.

5.51 O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining amaldagi me'yoriy hujjatlariga rioya qilish.

5.52 Tizimdan foydalanuvchi Qo'llanmasiga rioya qilish (ko'rsatma matni dasturda mavjud);

5.53 Agar Tizimda biron bir nosozlik aniqlansa, ularni bartaraf etish uchun Bankning xizmat ko'rsatish markaziga qo'ng'iroq qilish.

6. TOMONLAR JAVOBGARLIKLARI

6.1 Ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun Tomonlar amaldagi Qonunchilikka muvofiq javobgar bo'ladilar.

6.2 Mijoz quyidagilarga javobgardir:

6.2.1 Tizimdan foydalanishda Xizmat ko'rsatish qoidalarida nazarda tutilgan xavfsizlik talablariga rioya qilish, shuningdek ushbu xavfsizlik choralariga rioya qilmaslik natijasida kelib chiqadigan yo'qotishlar va (yoki) boshqa oqibatlariga;

6.2.2 Mijozning Tizimga kirishi uchun zarur bo'lgan kirish ma'lumotlarining (login, parol, OTP qurilmasi) va Mijozning xorijiy valyutadagi ETHni qo'shimcha Call-back avtorizatsiya qilish uchun zarur bo'lgan telefon orqali tasdiqlanuvchi ma'lumotlari xavfsizligi va maxfiyligini ta'minlashga;

6.2.3 Tizimga kirish ma'lumotlari (login, parol, OTP qurilmasi) va Mijozning xorijiy valyutadagi ETHni qo'shimcha Call-back avtorizatsiya qilish uchun zarur bo'lgan telefon orqali tasdiqlanuvchi ma'lumotlaridan ruxsatsiz foydalanish natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlar uchun, shuningdek xavfsizlik va maxfiylik qoidalari va Internet Banking Tizimidan foydalanish qoidalari (ushbu Shartnomaga 3 – Ilova) buzilganligi / noto'g'ri bajarilganligi uchun;

6.2.4 Ushbu Shartnoma va Xizmat ko'rsatish qoidalariga asosan Mijozga Bank tomonidan taqdim etilgan Tizim xizmatlariga Mijoz tomonidan qasddan yoki uning beparvoligi natijasida uchinchi shaxslarning noqonuniy tarzda ruxsatsiz kirishlari natijasida kelib chiqqan barcha oqibatlar uchun;

6.2.5 Mijozning Internet Banking Tizimga kirish ma'lumotlaridan (login, parol, OTP qurilmasi), shuningdek Mijozning xorijiy valyutadagi ETHsini qo'shimcha Call-back avtorizatsiya qilish uchun zarur bo'lgan telefon orqali tasdiqlanuvchi ma'lumotlaridan foydalangan holda Mijoz yoki uchinchi shaxslar tomonidan, Mijozning bu holatdan habardorligi yoki habardor emasligidan qat'iy nazar, amalga oshirilgan har qanday harakatlar yoki tashabbuslar natijasida yuzaga keladigan har qanday oqibatlar uchun;

O'zgartirishlar haqida ma'lumot: Boshqaruvning 07.06.2021 yildagi 45 – sonli Bayonnomasiga binoan Ommaviy Ofertaning 6 – bo'limida 6.2.6 - bandi yangi tahrirda taqdim etilgan (o'zgartirishlar 21.06.2021 dan kuchga kiradi).

6.2.6 Mijoz to'lov vositalaridan foydalanish qoidalari, EH / ETH ni rasmiylashtirish va avtorizatsiyalash tartibi Qonunchilikka muvofiqligi uchun javobgardir.

O'zgartirishlar haqida ma'lumot: Boshqaruvning 07.06.2021 yildagi 45 – sonli Bayonnomasiga binoan Ommaviy Ofertaning 6.3 – bandi yangi tahrirda taqdim etilgan (o'zgartirishlar 21.06.2021 dan kuchga kiradi).

6.3 Bank Mijozning hisobvarag'i/hisobvaraqlari orqali operatsiyalarni to'g'ri aks ettirish va Internet Banking Tizimi orqali ma'lumotni o'z vaqtida o'tkazish uchun javobgardir.

6.4 Bank quyidagi hollarda javobgar emas:

6.4.1 Internet uzilishi bilan bog'liq sabablarga ko'ra ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajara olmaganligi uchun;

6.4.2 Uyali aloqa operatorlari, statsionar telekommunkitsiyalar telefon tarmog'i operatorlari, Internetga kirishni ta'minlovchi kompaniyalar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarning sifati uchun;

6.4.3 Shaxsiy kompyuterlar va mobil qurilmalar egalarining harakatlari uchun, Mijoz tomonidan foydalaniladigan veb – sahifalar va mobil ilovalar egalarining harakatlari uchun, Mijoz tomonidan ishlatilgan uchinchi tomon dasturiy ta'minotidan kelib chiqadigan harakatlar uchun, shuningdek, Mijoz tomonidan Internet Banking Tizimi xizmatlaridan foydalanishdagi Xizmat ko'rsatish qoidalarida ko'rsatilgan xavfsizlik talablariga rioya etmaslik natijasida kelib chiqadigan har qanday yo'qotish va / yoki boshqa oqibatlar uchun;

6.4.4 Mijozning Tizimga kirish uchun foydalanadigan uskunasi zararli dasturlarning ishlashi natijasida Mijozning maxfiy ma'lumotlarini, shu jumladan kirish ma'lumotlarini (login, parol, OTP qurilmasi) o'g'irlanishi, buzilishi yoki yo'qolishi va buning oqibatlari uchun;

6.4.5 Mijozning Internet Banking Tizimi orqali hisobvaraqlarini boshqarish uchun uchinchi shaxslarning Mijozning Tizimga kirish ma'lumotlari (login, parol, OTP qurilmasi) yoki Internet Banking Tizimiga kirish va tranzaksiyalarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan Mijozning boshqa ma'lumotlaridan foydalangan holda ruxsatsiz kirish oqibatida yetkazilgan zararlarga, shuningdek ushbu Shartnoma va Xizmat ko'rsatish qoidalarida nazarda tutilgan boshqa hollarda;

6.4.6 Mijoz va har qanday uchinchi tomon oldida Mijozning Internet Banking Tizimi orqali yuborgan to'lov topshirig'i yoki boshqa topshirig'i Bankka bog'liq bo'lmagan tarzda Tizimning ishdan chiqishi, zararlanishi yoki o'chib qolishi natijasida ijro etilmasa;

6.4.7 Bankka bog'liq bo'lmagan tarzda Tizimning ishdan chiqishi, zararlanishi yoki o'chib qolishi natijasida Tizim orqali taqdim etilayotgan ma'lumotlarning muntazam emasligi, tartibsizligi, to'liq emasligi natijasida Mijoz topshiriqlari ijro etilmaganda;

6.4.8 Mijozning Tizim orqali Bankka yuborgan topshiriqlari Mijozning hisobvarag'i / hisobvaraqlari bloklangan yoki band solingan taqdirda, shuningdek Mijozning hisobvarag'i / hisobvaraqlari bo'yicha harakatlar ushbu Shartnoma, Bank hisobvarag'i Shartnomasi va / yoki Qonunchilikka muvofiq to'xtatib turilganligi munosabati bilan ijro etilmaganda;

6.4.9 Mijozning Internet Banking Tizimi orqali Bankka yuborgan topshiriqlari amaldagi Qonunchilikka zid bo'lgan yoki ularni tayyorlashda xatolik yuz berganligi sababli bajarmaganligi uchun;

6.4.10 Mijozning Tizim orqali Bankka taqdim etgan xorijiy valyutadagi ETH Bankning tegishli ichki tartibiga asosan, ushbu ETHni qo'shimcha Call-back avtorizatsiyadan o'tkazish maqsadida Bankning mas'ul xodimlari tomonidan Mijozning mas'ul xodimiga, ushbu shartnomaning 2- ilovasida keltirilgan telefon raqamlariga ketma-ket bir nechta muvaffaqiyatsiz ulanishlar amalga oshirilishi sababli ijro etilmaganda;

6.4.11 Shartnomaning ushbu qismida ko'rsatilgan sabablarga ko'ra Bank tomonidan Mijozning ko'rsatmalarini bajarmaslik natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan har qanday yo'qotish va / yoki boshqa oqibatlar uchun.

6.5 Mijoz topshiriqlari va ko'rsatmalari bajarilishida Tizimda Bankka bog'liq bo'lmagan xatoliklar, nosozliklar, operatsion nosozliklar yoki Bank nazoratidan tashqari kechikishlar yo'qligiga kafolat bermaydi. Shuningdek, Bank Tizimning uzilishlarsiz ishlashiga, hamda Tizim zamonaviy texnika va texnologiyalarning eng so'nggi yutug'i ekanligiga, yoki Mijoz tomonidan kutilgan aniq maqsadlar yoki natijalarga javob berishiga kafolat bermaydi.

6.6 Bankning Mijoz oldidagi javobgarligi elektr energiyasining yetishmasligi yoki uchinchi tomonlarning boshqa nizolari sababli Tizimning ishlamay qolishi natijasida Mijozga yetgan bilvosita zararlarni o'z ichiga olmaydi, hatto Mijoz bunday yo'qotishlar ehtimoli borligi to'g'risida Bankni ogohlantirgan bo'lsa ham. Bankning Mijoz topshirig'ini atayin yoki ehtiyotsizlik natijasida ijro etmaganligi isbotlangan holatlar bundan mustasno.

6.7 Tomonlar ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni fors-major holatlari tufayli bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun javobgarlikdan ozod qilinadi. Majburiyatdan ozod qilish shartlari va yengib bo'lmas holatlar yuzaga kelgan taqdirda Tomonlarning o'zaro munosabatlari tartibi Xizmat ko'rsatish qoidalari yoki ushbu Shartnomaning 9 – bo'limida ko'rsatib o'tilgan.

7. O'ZGARISHLAR VA QO'SHIMCHALAR KIRITILISHI

O'zgartirishlar haqida ma'lumot: Boshqaruvning 07.06.2021 yildagi 45 – sonli Bayonnomasiga binoan Ommaviy Ofertaning 7.1 – bandi yangi tahrirda taqdim etilgan (o'zgartirishlar 21.06.2021 dan kuchga kiradi).

7.1 Bankda ushbu Shartnomaga, uning Ilovalariga va Bank Tariflariga bir tomonlama o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish huquqi mavjudligi, (ushbu o'zgartirishlar kuchga kirgan kundan 10 kun oldin) Mijozni oldindan xabardor qilish orqali, Shartnomaning ushbu qismida ko'rsatilgan shartlarga asosan Mijoz tomonidan tan olinadi va qabul qilinadi.

7.2 Bank Mijozga o'zbek, rus, ingliz tillarida o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilganligi to'g'risida e'lonni Bankning rasmiy veb – sahifasi www.kdb.uz da, Bank binolarida ("Ma'lumotlar" burchagida) va Internet Banking Tizimida ("Yangiliklar" bo'limida) joylashtirish orqali oldindan xabar beradi. Ushbu qismga mufoviq qilingan bildirishnomalar ular joylashtirilgan kundan boshlab qabul qilingan deb hisoblanadi.

7.3 Mijozga ushbu Shartnomaning shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilish xabar qilinganda, bildirishnoma yuborilgandan keyin Bank tomonidan taklif qilingan Shartnoma shartlariga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar bilan tanishish faktini Mijoz qabul qilmagunicha, Bank Tizimdan foydalanishni to'xtatib qo'yish huquqiga ega.

7.4 Ushbu Shartnomaga, uning Ilovalariga va / yoki Xizmat ko'rsatish qoidalariga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar bilan rozi bo'lmagan taqdirda, Mijoz ushbu Shartnomaga, uning Ilovalariga va / yoki Xizmat ko'rsatish qoidalariga tuzatishlar va qo'shimchalar kuchga kirgan sanaga qadar Bankni yozma ravishda xabardor qiladi. Mijozning ushbu Shartnomaga kiritilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar, uning Ilovalariga va / yoki Xizmat ko'rsatish qoidalariga noroziligi Mijozning ushbu Shartnomani bajarishdan bosh tortishi hisoblanadi va Bank tomonidan Mijozdan yozma bildirishnoma olingan kundan boshlab 5 (besh) kun ichida Shartnoma bekor qilinishi kerak, ushbu Shartnomaga, uning Ilovalariga va / yoki Xizmat ko'rsatish qoidalariga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar bilan rozi emasligi to'g'risida yozma bildirishnoma (shu jumladan EH) taqdim etishi lozim.

7.5 Ushbu Shartnomaning 7.4 – bandida ko'rsatilgan Mijozning bildirishnomasini yo'qligi, Mijozning ushbu Shartnomaga, uning Ilovalariga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarga roziligini bildiradi va Bank Mijoz tomonidan ushbu Shartnomani yangi shartlarda davom ettirish bo'yicha Bank taklifini qabul qilgan deb hisoblaydi.

7.6 Bank Tariflariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritganda, ushbu o'zgartirishlar va qo'shimchalar ular kuchga kirgan kundan boshlab ushbu Shartnomaga nisbatan qo'llaniladi.

8. XAVFSIZLIKNI VA MAHFIVLIKNI TA'MINLASH

8.1 Mijoz Tizimni uchinchi shaxslar tomonidan ruxsatsiz kirishdan himoya qilish uchun Xizmat ko'rsatish qoidalari (ushbu Shartnomaga 3 – Ilova) ga muvofiq yetarli xavfsizlik choralari ko'rishni o'z zimmasiga oladi va shu bilan majburiyatni bajarmaslikning barcha oqibatlari uchun javobgar bo'ladi.

8.2 Mijoz tegishli xavfsizlik choralari ko'rishni o'z zimmasiga oladi va mas'ul xodimlariga va / yoki foydalanuvchilarga bevosita va bilvosita, bila turib yoki beparvolik, loqaydlik yoki bee'tiborligi tufayli har qanday ruxsat etilmagan shaxsga yoki boshqa foydalanuvchiga, kompaniyaga oshkor qilish yoki ko'rsatishga haqli emasligi to'g'risida ko'rsatma berish korporativ ma'lumotlarga kirish (login, parol, OTP qurilmasi), shuningdek OTP qurilmasi har qanday ruxsat etilmagan shaxs yoki boshqa foydalanuvchi, kompaniya yoki korporatsiya qo'liga tushib qolishining oldini olishi lozim.

8.3 Tizim va undan foydalanish to'g'risidagi ma'lumotlarni faqat Mijozning Arizasida belgilangan tartibda ko'rsatilgan mas'ul xodimlar (foydalanuvchilar) bilishi mumkin, Mijoz ularning Tizimga kirishini kafolatlaydi va ular uchun javobgardir, faqatgina foydalanuvchilar Tizimga kirish huquqiga ega bo'ladilar.

8.4 Mijoz vaqti – vaqti bilan foydalanuvchi parollarini, hamda xorijiy valyutadagi ETHni (ushbu Shartnomaga 2 – Ilova) qo'shimcha Call-back avtorizatsiyadan o'tkazish uchun telefon orqali taqdim etiluvchi ma'lumotlarni o'zgartirishga rozi.

8.5 Qo'shimcha Call-back avtorizatsiyasini amalga oshirayotganda, Bank va Mijoz o'rtasidagi telefon suhbatlari Bank tomonidan yozib olinishi mumkinligini Mijoz tushunadi va qabul qiladi. Mijoz, telefon orqali so'zlashuvlarning bunday yozuvlari Bank va Mijoz o'rtasida kelishmovchiliklar yuzaga kelganda, Bank tomonidan dalil sifatida ishlatilishi mumkinligiga rozi.

8.6 Agar mijoz Tizim va / yoki biron bir kirish rekviziti (login, parol, OTP qurilmasi) Tizimdan foydalanishga ruxsati yo'q shaxslar yoki uchinchi shaxslar uchun foydalanish imkon tug'ilgan, noto'g'ri ishlatilgan bo'lsa yoki ma'lumotlar ruxsati yo'q shaxslarga yetib kelgan yoki ularga yetib borishi mumkinligiga ishonish uchun biron bir sabab bo'lsa, Mijoz zudlik bilan bankka telefon orqali xabar beradi va qisqa vaqt ichida, 8 (sakkiz) soatdan kechiktirmay, telefon orqali qo'ng'iroq orqali yuborilgan xabarni yozma ravishda bankka tasdiqlaydi.

[O'zgartirishlar haqida ma'lumot: Boshqaruvning 07.06.2021 yildagi 45 – sonli Bayonnomasiga binoan Ommaviy Ofertaning 8.7 – bandi yangi tahrirda taqdim etilgan \(o'zgartirishlar 21.06.2021 dan kuchga kiradi\).](#)

8.7 Bank vaziyatni bartaraf etish uchun tegishli choralarni Mijozning xabarnomasini olganidan 1 (bir) soatdan kechiktirmasdan ko'rguniga qadar, Mijoz Tizimning ruxsatsiz ishlatilishi va / yoki har qanday kirish ma'lumotlari (login, parol, OTP qurilmasi) uchun javobgar bo'ladi. Mijoz Bankni tizimdan bunday ruxsatsiz foydalanish natijasida yuzaga keladigan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlardan, xarajatlardan, yoki Bankka qarshi qaratilgan harakatlardan himoya qilish uchun barcha zarur va yetarli choralarni ko'rishi kerak.

8.8 Mijoz Tizim va unga tegishli ko'rsatmalar, hujjatlar, texnik adabiyotlar va boshqa materiallar / ma'lumotlar Bankning tijorat sirlari ekanligini va qat'iy maxfiy, daxlsiz va muhim ekanligini, shuningdek bu maxfiylik Bank faoliyati samaradorligi va muvaffaqiyatiga sezilarli darajada ta'sir qilishini tasdiqlaydi. Ushbu bilan Mijoz Tizimga, hujjatlarga, tizimdan foydalanish bilan bog'liq holda olingan ma'lumotlarga, bilim va tajribaga nisbatan maxfiylikni saqlashga, Tizimda ishlash ruhsati bo'lgan foydalanuvchilar soni ko'payishini va ular orqali ma'lumotlarni oshkor bo'lishini cheklashga, Tizim yoki unga tegishli bo'lgan yo'riqnomalar hujjatlarni, texnik adabiyotlarni va boshqa materiallar / ma'lumotlardan nusxa

ko'chirmaslikka, nusxa olmaslikka, hamda har qanday uchinchi tomonga sotmaslikka yoki berib yubormaslikka o'z roziligini bildiradi.

9. FORS MAJOR

9.1 Mijoz va / yoki Bank ushbu Shartnoma bo'yicha o'z funksiyalarini bajarishga to'sqinlik qiladigan, tabiiy ofatlar, baxtsiz hodisalar, yong'inlar, tartibsizliklar, ish tashlashlar, harbiy harakatlar, uchinchi shaxslarning noqonuniy xatti-harakatlari, aloqa tarmoqlarining buzilishi (shu jumladan Internet Banking Tizimi), elektr ta'minoti sohasidagi baxtsiz hodisalar; ushbu Shartnomada ko'rsatilgan faoliyatni to'g'ridan – to'g'ri yoki bilvosita taqiqlovchi normativ – huquqiy hujjatlar, vakolatli organlar va / yoki tashkilotlarning majburiy bo'lgan har qanday boshqa qarorlari kuchga kirishi, shuningdek Bank va Mijozga bog'liq bo'lmagan boshqa holatlar, ular o'z majburiyatlarini bajarmaganliklari uchun javobgarlikdan ozod qilinadi.

9.2 Fors-major vaziyatlar ta'sirida bo'lgan Tomon kechiktirmasdan, lekin fors-major holati sodir bo'lgandan keyin 3 (uch) bank kunidan kechiktirmay, boshqa Tomonga ushbu holatlar va ularning oqibatlari to'g'risida yozma ravishda xabar beradi va shuningdek, belgilangan fors-major holatlarni keltirib chiqargan salbiy oqibatlarni imkon qadar cheklash uchun barcha choralarni ko'radi.

9.3 Fors-major holatlari yuzaga kelgan Tomon, kechiktirmasdan, lekin 3 (uch) bank kunidan kechiktirmay, ushbu holatlarning bekor qilinganligi to'g'risida boshqa Tomonni yozma ravishda xabardor qilishi shart.

9.4 Tomonlar ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish iloji yo'qligi, boshqa Tomon fors-major holatlari yuzaga kelishi to'g'risida xabar bermaganligi yoki o'z vaqtida xabar qilmaganligi, ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun javobgarlikdan ozod qilish uchun ushbu holatlarga murojaat qilish huquqini yo'qotishga olib keladi.

9.5 Fors-major holatlarni kelib chiqishi, agar Tomonlar boshqa shartnomada kelishmagan bo'lsalar, ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati uzaytirilishi mumkin.

9.6 Tomonlar ushbu Shartnoma bo'yicha yengib bo'lmaydigan kuchlar ta'sir qilgan har qanday majburiyatni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajara olmaganligi uchun javobgarlikdan ozod qilinadi, Tomonlarning ushbu Shartnoma bo'yicha fors-major holati ta'sir qilmagan boshqa majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun javobgarlikdan ozod qilishga olib kelmaydi.

9.7 Agar fors-major holatlari olti oydan ko'proq davom etsa, unda har qanday Tomon ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishni rad etishga haqlidir.

10. SHARTNOMANING MUDDATI

10.1 Shartnoma Mijoz tomonidan ushbu Shartnomaning 3 – bo'limidagi shartlarini bajargan paytdan boshlab kuchga kiradi va bir kalendar yil davomida amal qiladi. Agar Tomonlar yuqoridagi sanadan 5 kun oldin uni bekor qilish to'g'risida taklif yubormagan bo'lsa, Shartnoma har bir keyingi yilga uzaytirilgan deb hisoblanadi.

10.2 Shartnoma har qanday vaqtda Tomonlarning birini tashabbusi bilan bekor qilinishi mumkin, bunda tashabbuskor Tomon boshqa Tomonga bekor qilinadigan kundan kamida 1 kalendar oy oldin, ushbu Shartnoma bo'yicha barcha majburiyatlarni bajargan holda yozma bildirishnoma yuborishi shart.

10.3 Agar Shartnoma oyning 15 – kunining oxirigacha bekor qilingan bo'lsa, ushbu oy uchun oylik komissiyasi olinmaydi. Agar oyning 15 – kunidan keyin Shartnoma bekor qilingan bo'lsa, ushbu oy uchun oylik komissiyasi to'liq miqdorda olinadi.

10.4 Agar Mijoz Bankdagi barcha hisobvaraqlarni yopmoqchi bo'lsa, Mijozning barcha hiobvaraqlarini yopish to'g'risidagi rasmiy so'rovi ushbu Shartnomani bekor qilish uchun asos bo'ladi.

10.5 Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in quollarini tarqatishni moliyalashtirish maqsadida Internet Banking Tizimi xizmatlaridan foydalanganlik haqida asosli shubhalar mavjud bo'lsa, Shartnoma Bank tomonidan bir tomonlama bekor qilinishi mumkin.

11. MUNOZARALARNI HAL QILISH TARTIBI

11.1 Ushbu Shartnoma bo'yicha kelishmovchiliklar yuzaga kelganda, Bank va Mijoz ularni Tomonlar o'rtasida muzokaralar yo'li bilan hal qilish uchun barcha choralarni ko'radilar. Tomonlar o'rtasida kelishuvga erishilmagan taqdirda, nizo Qonunchilikda belgilangan tartibda hal qilinadi.

11.2 Ushbu Shartnoma, uning Ilovalari va Bank Tariflari bilan tartibga solinmagan masalalarda Tomonlar Bank hisobvarag'i to'g'risidagi Shartnoma va / yoki amaldagi Qonunchilik asosida boshqaradilar.

12. BOSHQA SHARTLAR

12.1 Tomonlar bir – birlarini manzil, telefon yoki faks raqamidagi o'zgarishlar to'g'risida kechiktirmasdan xabardor qiladi, ammo har qanday holatda, bunday o'zgarishdan 3 (uch) kundan kechiktirmagan holda xabar qilinishi lozim.

O'zgartirishlar haqida ma'lumot: Boshqaruvning 07.06.2021 yildagi 45 – sonli Bayonnomasiga binoan Ommaviy Ofertaning 12.2 – bandi yangi tahrirda taqdim etilgan (o'zgartirishlar 21.06.2021 dan kuchga kiradi).

12.2 Ushbu Shartnoma shartlari o'zbek, rus va ingliz tillarida tuzilgan, Bank tomonidan har xil tillardagi versiyalar orasida haqiqiylikni ta'minlash maqsadida maksimal darajada harakat qilingan.

13. BANK MANZILI VA REKVIZITLARI

Bosh ofis "KDB Bank O'zbekiston" AJ

Manzil: O'zbekiston Respublikasi, 100047,

Toshkent sh., Buxoro k., 3-uy

Telefon: (+998 78) 120-80-00

E-mail: info@kdb.uz

STIR: 202167236

MFO: 00842

SWIFT Kod: KODBUZ22

Yunusobod filiali "KDB Bank O'zbekiston" AJ

Manzil: O'zbekiston Respublikasi, 100084

Toshkent sh., Minor k., 77-uy

Telefon: (+998 78) 120-61-41

E-mail: info@kdb.uz

STIR: 202064665

MFO: 00831

SWIFT Kod: KODBUZ22

Yakkasaroy filiali "KDB Bank O'zbekiston" AJ

Manzil: O'zbekiston Respublikasi, 100070

Toshkent sh., Shota Rustavelli k., 12-uy

Telefon: (+998 78) 140-06-30

E-mail: info@kdb.uz

STIR: 207045749

MFO: 01065

SWIFT Kod: KODBUZ22

Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga “Internet Banking iDBA” masofaviy bank xizmatlarini ko’rsatish to’g’risidagi Shartnoma–ommaviy ofertaga 1-Ilova

O’zgartirishlar haqida ma’lumot: Boshqaruvning 25.05.2022 yildagi IMG/LGD/HO/22/42-sonli Bayonnomasiga binoan Ommaviy Ofertaning 1-ilovasi 17 va 18-bandlar bilan to’ldirilgan (o’zgartirishlar 01.06.2022 dan kuchga kiradi).

Internet Banking Tizimidagi xizmatlar ro’yxati va xizmatlar jadvali

#	Operatsiya nomi	Operatsiyani amalga oshirish vaqti* (Toshkent vaqti)
1.	Hisobvaraqdagi qoldiqlar va harakatlarni ko’rish	24/7 rejimida
2.	To’lov tarixini ko’rish va chop etish	24/7 rejimida
3.	Bankka so’rov yuborish	24/7 rejimida
4.	Hisobvaraqa ochish uchun so’rov yuborish	24/7 rejimida
5.	Plastik kartani to’ldirish (ish haqi kartasi)	9.00 – 17.30
6.	Korporativ plastik kartani to’ldirish	9.00 – 17.30
7.	Milliy valyutadagi tashqi o’tkazmalar (operatsiyani amalga oshirish sanasi)	9.00 – 16.45
8.	Bank ichida milliy valyutada o’tkazmalar (operatsiyani amalga oshirish sanasi)	9.00 – 18.00
9.	Xorijiy valyutadagi tashqi o’tkazmalar (SWIFT)	9.00 – 16.30
10.	Bank ichida xorijiy valyutada o’tkazmalar	9.00 – 16.30
11.	Konversiya operatsiyalari (valyutani sotib olish/sotish)	9.00 – 16.00
12.	ANOR Tizimi orqali to’lovlar ¹	24/7 rejimida
13.	ANOR Tizimi orqali to’lovlar (operatsiyani amalga oshirish sanasi) ²	24/7 rejimida
14.	MUNIS Tizimi orqali to’lovlar	24/7 rejimida
15.	Eksport / Import shartnomalari ro’yxatini ko’rish	24/7 rejimida
16.	Kredit shartnomasi to’g’risidagi ma’lumotlarni ko’rish	24/7 rejimida
17.	Subkredit uchun ariza topshirish ³	9.00 – 18.00
18.	Subqarzni to’lash bo’yicha so’rovni yuborish ³	9.00 – 16.00

Izoh!

1. Bank tomonidan qabul qilingan Mijozning ETH, operatsiyani amalga oshirish vaqti* ga binoan, ushbu ETH qabul qilingan ish kunida Bank tomonidan ijro etiladi.
 2. Mijozning ETH (12.13 va 14-bandlarda keltirilgan xizmatlardan tashqari) Bank tomonidan Bank va uning filiallari ish jadvaliga muvofiq rasmiy ish kunlarida ijro uchun qabul qilinadi.
 3. Bank o’zining va filiallarining ish jadvalini, shuningdek Internet Banking Tizimida operatsiyalar o’tkazish vaqtini o’zgartirish huquqiga ega.
 4. Xorijiy valyutada o’tkazmalar (SWIFT) bo’yicha arizalar korrespondent banklarning ish vaqtiga muvofiq ijro etiladi.
 5. Milliy valyutada o’tkazmalar uchun topshiriqnomalarning bajarilish muddati O’zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tegishli buyrug’iga qarab o’zgartirilishi (uzaytirilishi) mumkin.
- ¹ Operatsiyalarni amalga oshirish vaqtidan keyin Bank tomonidan qabul qilingan Mijozning ETH si keyingi ish kunida Bank tomonidan amalga oshiriladi. Mijoz tomonidan ish kundan tashqari kunlarda yuborilgan ETH lar Bank tomonidan ish kuni bo’lmagan kunlardan keyingi birinchi ish kunida ijro etiladi.
- ² Mijozning ETH ni yuborgan sanadan tashqari operatsiyani amalga oshirish uchun boshqa sanani belgilagan bo’lsa, Bank belgilangan ijro etish kuni soat 16.30 gacha ETH ni amalga oshiradi.
- ³ Faqat kredit tashkilotlari uchun mavjud. Arizalar 2 ish kuni ichida ijro uchun qabul qilinadi.

**ANOR tezkor to'lov tizimi (ANOR Tizimi) orqali
Mijozning to'lov topshiriqnomalarini bajarish tartibi.**

Shartnoma tuzish maqsadida quyidagi atamalar keyingi ma'nolarda ishlatiladi:

Tezkor to'lov – Mijozning to'lov topshirig'i asosida amalga oshiriladigan, Internet Banking Tizimi orqali real vaqtda yuborilgan to'lov;

Tezkor to'lovlar tizimi (keyingi o'rinlarda “**ANOR Tizimi**”) – tovarlarga, ishlarga, xizmatlarga, byudjet oldidagi majburiyatlarning bajarilishini o'zbek so'mida real vaqtda 24 soat, haftaning 7 kuni dam olishsiz va bayram kunlari to'lashga imkon beradigan xizmat.

1. Bank Internet Banking Tizimi orqali olingan Mijozlarning to'lov topshiriqnomalari asosida tezkor to'lovlarni qabul qiladi, qayta ishlaydi va o'tkazadi.
2. Bank tomonidan zudlik bilan to'lovlarni amalga oshirganligi uchun ish haqi miqdori (xizmatlar narxi) Bank Tariflariga muvofiq belgilanadi.
3. Bank tomonidan ANOR Tizimi orqali to'lov topshiriqlarini bajarish vaqti Internet Banking Tizimida Mijoz uchun mavjud bo'lgan Bank kunining davomiyligi to'g'risidagi ma'lumotlarda, va Bank Tariflarida ko'rsatilgan.
4. Bank tomonidan ANOR Tizimi orqali Mijozning to'lov topshiriqnomalarini bajarishi quyidagi shartlar bilan birgalikda bajarilgan taqdirda amalga oshiriladi:
 - To'lov topshiriqnomasi elektron hujjat shaklida o'zbek so'mida taqdim etiladi va Mijozning Hisobvarag'iga o'zbek so'mida rasmiylashtiriladi;
 - Mijozning Hisobvarag'ida band qo'yish, operatsiyalarni to'xtatib turish, to'lov ko'rsatmalarini to'lash uchun mablag'larni bron qilish, kechiktirib bo'lmaydigan ehtiyojlar uchun, ish haqi uchun belgilangan minimal miqdordagi mablag'larni bron qilish va h.k. shaklida cheklovlar mavjud emasligi;
 - To'lovni amalga oshirish uchun Mijozning Hisobvarag'ida yetarli miqdordagi mablag' mavjud bo'lishi;
 - Tezkor to'lovni qabul qiluvchi Bank tezkor to'lov tizimining a'zosi va ushbu tizimda faoliyati cheklanmagan bo'lishligi;
 - To'lov topshirig'ida “ANOR tizimi orqali to'lov topshirig'i” to'lov belgisi (to'lov turi) mavjud bo'lsa;
 - Operatsiya Bank tomonidan belgilangan qoidalar va tartiblarga muvofiq qo'shimcha nazoratga olinmasa;
 - Qonunchilikda va (yoki) Bankda nazarda tutilgan boshqa cheklovlar mavjud bo'lmasa.
5. “ANOR tizimi orqali to'lov topshirig'i” atributiga (to'lov turiga) ega bo'lgan to'lov topshirig'i qaytarib olinmaydi va uni Mijoz bekor qilishi mumkin emas.
6. Tezkor to'lovlar Mijozning Hisobvarag'idagi mablag'lar qoldig'i doirasida to'liq hajmda Bank Tariflariga muvofiq Bank tomonidan tezkor to'lovlarni amalga oshirganligi uchun xizmat haqi miqdorini (xizmatlar narxini) olib tashlagan holda amalga oshiriladi.
7. Tezkor to'lov bekor qilingan (rad qilingan) yoki to'lov holati o'zgargan taqdirda, Bank avtomatik ravishda Mijozga Internet Banking Tizimi orqali to'lovni bekor qilish (rad etish) yoki uning holati o'zgarganligi to'g'risida darhol xabardor qiladi.

Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga “Internet Banking iDBA” masofaviy bank xizmatlarini ko’rsatish to’g’risidagi Shartnoma–ommaviy ofertaga
2-Ilova

Call-Back Avtorizatsiya uchun ma'lumot *:

Mijozning to'liq nomi:	
Mijozning STIR i:	

Call-Back Avtorizatsiya uchun bog’lanish lozim bo’lgan shaxslar

1. F.I.Sh.
Telefon raqami 1) 2)
2. F.I.Sh.
Telefon raqami 1) 2)
3. .I.Sh.
Telefon raqami 1) 2)

* *Itimos, bo'sh joylarni chizib qo'ying.*

Ushbu bilan Mijoz shuni tasdiqlaydiki, yuqorida ko'rsatilgan shaxslarning har qaysisi Internet Banking Tizimi orqali ijro etish uchun Bankka yuborilgan chet el valyutasidagi to'lov ko'rsatmalarini tasdiqlash huquqiga ega.

Mijoz yuqorida sanab o'tilgan shaxslardan tashqari, yuqoridagi ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga oshkor qilmaslik, Internet Banking orqali Bankka taqdim qilingan elektron to'lov hujjatlarini tasdiqlashda to'lov tafsilotlarini to'g'ri oshkor qilish uchun to'liq javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

Mijoz telefon orqali tasdiqlash uchun ma'lumotni yangilab turishni o'z zimmasiga oladi.

Yuqoridagi ma'lumotlarni ma'qullayman,

Rahbar:

F.I.Sh. / Lavozim

Imzo

M.O'.
(talabga ko'ra)

Internet Banking Tizimida Xizmatlarni ko’rsatish qoidalari

1. Tizimdan foydalanish va unga kirish

Tizimda ishlash vaqtida Mijoz quyidagi talablarni bajarishi shart:

1.1 Tizim bilan ishlash uchun ishlatiladigan kompyuter yoki qurilmaga kiritilgan kirish ma’lumotlari (login, parol, OTP qurilmasi) maxfiylikini ta’minlash uchun ishlaydigan xavfsizlik tizimlariga ega qurilmalardan foydalanish:

- Ish joyiga (kompyuterga yoki boshqa qurilmaga) kirishni cheklash;
- Yangilangan ma’lumotlar bazalari bilan faol litsenziyalangan (soxta bo’lmagan) virusga qarshi dastur;
- Operatsion tizimni yangilash tizimi;

1.2 Internet orqali Tizimda ishonchga sazovor bo’lmagan joylardan yoki umumiy aloqa kanallaridan (bepul Wi-Fi va boshqalar) foydalanadigan ulanish manbasini qo’llab ulanmaslik.

1.3 Internet Banking Tizimidan foydalangan holda operatsiyalar va boshqa ishlarni amalga oshirish uchun zarur bo’lgan kirish ma’lumotlari (login, parol, OTP qurilmasi) va boshqa ma’lumotlarning xavfsizligi va maxfiylikini ta’minlash, bunday ma’lumotlarni boshqa shaxslarga (shu jumladan do’stlari, tanishlari, qarindoshlari, Bank xodimlari va boshqalarga) oshkor qilmaslik.

1.4 Hech qachon va hech qanday holatda, hech kimga Tizimga kirish ma’lumotlarini (login, parol, OTP qurilmasini) oshkor qilmaslik. Bank xodimlari va texnik qo’llab-quvvatlash xizmati uchun parol yoki OTP qurilmasining paroli talab qilinmaydi.

1.5 Tizimga kirish uchun parolni muntazam ravishda, kamida 90 kunda bir marta yoki uning maxfiylikiga bevosita yoki bilvosita ta’sir qilishi mumkin bo’lgan voqealar yuz berganda darhol o’zgartirish.

1.6 Tizimda yakunlanmagan to’lov sessiyasi davomida ish olib borilayotgan kompyuterni yoki boshqa qurilmani qarovsiz qoldirmaslik.

1.7 Har doim Tizimdagi to’lov sessiyasi oxirida, shuningdek Tizimda ishlashni yakunlash vaqtida brauzer oynasini yopishdan avval “EXIT-CHIQISH” tugmachasini bosish.

1.8 Mijoz tomonidan Tizim orqali kirish mumkin bo’lgan Hisobvaraqlar bo’yicha ruxsatsiz operatsiyalar o’tkazilganligi yoki uchinchi shaxslar tomonidan kirish ma’lumotlari (login, parol, OTP qurilmasi) va Mijozning Tizim orqali operatsiyalari va amalga oshirish uchun zarur bo’lgan boshqa ma’lumotlardan noqonuniy foydalanish faktlari to’g’risida xabar berish.

1.9 Internet Banking Tizimi Interfeysi maydonlariga foydalanilgan Tizim oynasi shaklida so’ralmagan yoki foydalanilgan Tizim oynasi maydonlariga kiritilishi mo’ljallanmagan ma’lumotlarni kiritmaslik.

1.10 Tizimga kirish huquqiga ega bo’lgan va / yoki Bankda OTP qurilmalarini olish uchun ishonchnomalarni imzlash huquqiga ega bo’lgan shaxslar ishdan bo’shatilganda va / yoki o’zgartirilganda Mijozning OTP qurilmasini almashtirish.

1.11 Bankning www.kdb.uz veb-saytidan foydalanganda, bank serveri bilan aloqa xavfsizligiga ishonch hosil qiling (HTTPS protokoli);

1.12 Keyingi avtomatik kirish uchun parolni saqlash bo’yicha brauzer taklifiga rozi bo’lmang;

1.13 Login, kirish parolini, bir martalik parolni, kirish kodini kompyuterda, mobil qurilmada, boshqa raqamli vositada (kompyuterning qattiq diskida, ko’chma raqamli vositada), boshqa shaxslar foydalanishi mumkin bo’lgan qog’ozda yoki Internet xizmatida saqlamang;

1.14 Kirish ma’lumotlari (login, parol, OTP qurilmasi) va bajarilgan bitimlar to’g’risidagi ma’lumotlarning maxfiylikini ta’minlash uchun Mijozga quyidagilar tavsiya etiladi:

- kirish ma'lumotlari bo'lgan sahifalarda brauzerning "Avtomatik to'ldirish" funktsiyalaridan foydalanmang;
- operatsion tizim foydalanuvchisini ish joyida parol bilan himoyalangan akkaunt bilan ta'minlash;
- Tizimda ishlash uchun Mijozning ish joyidagi operatsion tizimidagi ko'chma saqlash vositalarini avtomatik ishga tushirish funktsiyasini o'chirib qo'yish;
- Tizimda ishlash uchun mijozning ish joyini faqat Internet Banking Tizimi bilan ishlash vaqtida Internetga ulang;
- Mijozning ish joyidan Internetdagi ijtimoiy tarmoqlarga, forumlarga, konferentsiyalarga, chatlarga, telefon xizmatlariga va potentsial zararli dasturlarni o'z ichiga olgan boshqa saytlarga ulanish uchun foydalanmaslik, shuningdek, ishonchsiz qabul qiluvchilardan pochta xabarlarini o'qish va pochta hujjatlarini ochmaslik;
- boshqa saytlarda Mijozni avtorizatsiya qilish uchun foydalaniladigan login va parollardan Internet-Bank tizimiga qo'llamaslik;
- kuchli parollardan foydalanish (kamida 8 ta belgidan, shu jumladan Katta va kichik harflar va kamida bitta raqamni o'z ichiga olgan holda);
- Tizimga oxirgi tashrif sanasi va vaqtini, shuningdek, Tizimda Bankning veb-saytida orqali ishlayotganda, kiritilgan yozuvlar soni va ishlatilgan IP-manzillar va / yoki IP-manzilning yordamchi matnli tafsilotlarini muntazam ravishda kuzatib borish;
- Tizimda ishlash uchun foydalanilgan kompyuter (boshqa moslama) ekranida aks ettirilgan ma'lumotlarni o'rganish, taklif qilingan variantlardan o'z niyatlariga muvofiq harakatlarni tanlash va kiritilgan ma'lumotlarning to'g'riligini sinchkovlik bilan tekshirish;
- Internet Banking Tizimida ulanish o'rnatishda yoki Internet Banking Tizimida ishlashda dasturiy ta'minotdagi har qanday o'zgarishlar va xatolarga e'tibor bering, agar Internet Banking Tizimining to'g'ri ishlashiga shubha tug'lsa, darhol ishlashni to'xtating va Ruksatsiz operatsiyalar mavjudligini aniqlash uchun Bankka murojaat qiling;
- Tizimga ulanishda boshqa saytga yo'naltirish to'g'risida brauzer ogohlantirganda, operatsiyalarni keyinga qoldiring va qayta yo'naltirish sabablarini aniqlash uchun Bankning texnik qo'llab-quvvatlash xizmatiga murojaat qiling;
- Bankning vakolatli xodimlarini Tizimga kirish ma'lumotlarini (login, parol, OTP qurilmasi) bilib olishga urinishlar to'g'risida xabardor qiling;
- xatolar yoki ruksatsiz hisob-kitob operatsiyalarini kuzatib borish uchun harakatlarning tarixini / hisobvarag'idan doimiy ravishda tekshirib turing;

Mijoz tomonidan yuqoridagi talablar va tavsiyalarining bajarilmasligi Internet Banking Tizimidan foydalangan holda amalga oshirilgan hamda tomonlar orasida bahsga sabab bo'luvchi operatsiyalar uchun javobgarlikni Mijoz o'z zimmasiga olishiga asos bo'ladi.

2. Tizimga ulanish

2.1 Bank masofaviy bank xizmatlarini Tizimda faqat Mijozning Bankda ochilgan Bank Hisobvarag'i bo'lgan taqdirda taqdim etadi.

2.2 Bank Shartnoma asosida Mijozni Tizimga ulaydi. Bankda Mijozga xizmat ko'rsatish muddati, hisobvaraqlar bo'yicha mablag' aylanmasi miqdoridan qat'iy nazar, Shartnoma tuzilishi mumkin. Mijozning Tizimga ulanishiga cheklovlar tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurollarining tarqalishini moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidalari talablarida nazarda tutilganlar asos bo'lishi mumkin.

O'zgartirishlar haqida ma'lumot: Boshqaruvning 07.06.2021 yildagi 45 – sonli Bayonnomasiga binoan Ommaviy Ofertaning 3 – Ilovasi 2.3 – bandi yangi tahrirda taqdim etilgan (o'zgartirishlar 21.06.2021 dan kuchga kiradi).

2.3 Tizimga ulanish uchun Mijoz, foydalanuvchi tomonidan belgilangan shakldagi ro'yxatdan o'tish uchun ariza shablonini (ushbu Shartnomaga 4 – Ilova) Bank veb – sahifasidan yuklab oladi yoki Ilova shablonini Bankning istalgan filialidan oladi, to'ldiradi, rahbar imzosi va Mijoz muhri bilan tasdiqlaydi va Bankning tegishli filialining mas'ul xodimiga topshiradi.

2.4 Bankning mas'ul xodimi, Bankning ichki huquqiy hujjatlarida ko'zda tutilgan harakatlaridan tashqari, Arizadagi rahbar imzosi va Mijozning muhri haqiqiyliги va qonuniyligini tekshiradi, imzolaydi, Bank muhrini qo'yadi va Tizimda Mijozni ro'yxatdan o'tkazish uchun Bankning vakolatli xodimiga topshiradi.

2.5 Bankning vakolatli xodimi Arizada ko'rsatilgan ma'lumotlarga muvofiq foydalanuvchini ro'yxatdan o'tkazadi. Mijoz foydalanuvchi loginini va parolni mustaqil ravishda tanlaydi. Mijoz tomonidan tanlangan foydalanuvchi nomi (login), agar u boshqa Mijoz tomonidan ishlatilsa, Bank tomonidan rad etilishi mumkin.

2.6 Mijozning rahbari yoki Mijozning ishonchnomasi asosida ish yuritadigan vakolatli vakili Bankdan Arizaning ikkinchi ekzemplar / nusxasini shuningdek qabul qilish va topshirish to'g'risidagi guvoohnoma asosida OTP qurilmasini shaxsan o'zi olishi kerak (5 – Ilova).

3. Foydalanuvchining o'zgarishi

3.1 Tizim Foydalanuvchilar soniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish (yangi Foydalanuvchilarni ro'yxatdan o'tkazish va / yoki Foydalanuvchini o'zgartirish) uchun Mijoz Bankka Arizaning maqsadini (ulanish / to'g'irlash) hamda yangi yoki o'zgargan Foydalanuvchi uchun Tizimga kirish darajasi aniq ko'rsatilgan holda yangi foydalanuvchini ro'yxatdan o'tkazish uchun Arizani taqdim etadi.

3.2 Ushbu Shartnomaning 4.1 – bandiga muvofiq, Foydalanuvchini ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi Ariza Mijozning mas'ul xodimlarining vakolatlarini tasdiqlovchi hujjatlar, shuningdek ularning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar va boshqa Bank ma'lumotlari bilan Bankka taqdim etiladi.

4. Foydalanuvchining ma'lumotlarini to'g'irlash

4.1 Agar Foydalanuvchini ro'yxatdan o'tkazish paytida ko'rsatilgan Foydalanuvchi ma'lumotlarini yoki Foydalanuvchining kirish ma'lumotlarini (login, parol) to'g'irlash zarur bo'lsa, Mijoz Bankka Arizaning maqsadi (tuzatilishi) va o'zgartirilishi kerak bo'lgan barcha ma'lumotlarni aniq ko'rsatib Foydalanuvchini ro'yxatdan o'tkazish uchun yangi, belgilangan tartibda to'ldirilgan Arizani taqdim etadi.

4.2 Foydalanuvchining ma'lumotlarini tuzatishga quyidagilar kiradi:

- Mijozning ismini o'zgartirish yoki mulk shaklini o'zgartirish;
- Foydalanuvchining shaxsiy ma'lumotlarini o'zgartirish;
- Foydalanuvchi ro'yxati va / yoki vakolatlarini o'zgartirish;
- Foydalanuvchining mobil telefon raqamini, elektron pochta manzilini va boshqa ma'lumotlarini o'zgartirish.

5. Tizimga kirishni bloklash va blokdan chiqarish

5.1 Mijoz o'zining Tizimga kirish imkoniyatini (to'liq yoki qisman) bloklash imkoniyati va huquqi mavjud:

- Ruxsatsiz kirish tahdidi yoki kirish ma'lumotlari (login, parol, OTP qurilmasi) buzilishidan shubha qilingan taqdirda, Mijozning kirish ma'lumotlarini bloklash choralari ko'rish uchun darhol bankka xabar berish.

- Og'zaki ravishda telefon orqali xabar qilingan taqdirda (Mijozning kodli so'zi bilan identifikatsiya qilish), Mijoz keyingi ish kunidan kechiktirmay Tizimga kirishni bloklash to'g'risida so'rovini yozma ravishda tasdiqlaydi. Bloklash Mijozning talabidan keyin 1 (soat) ichida amalga oshiriladi.
- Foydalanuvchi o'zgargan yoki Foydalanuvchi ma'lumotlari o'zgargan taqdirda, Mijoz Xizmat ko'rsatish qoidalarining 4.1 – bandiga muvofiq Bankka yangi Arizani taqdim etadi. Qabul qilingan Ariza asosida Bank ma'lumotlariga o'zgartirish kiritilishi lozim bo'lgan Foydalanuvchini Tizimga kirishini bloklaydi va Tizimga tegishli o'zgartirishlarni kiritadi. Bank Mijozning Arizasini olganidan keyin bloklashni keyingi ish kunining oxirigacha amalga oshiradi.

O'zgartirishlar haqida ma'lumot: Boshqaruvning 07.06.2021 yildagi 45 – sonli Bayonnomasiga binoan Ommaviy Ofertaning 3 – Ilovasi 5.1 – bandi yangi tahrirda taqdim etilgan (o'zgartirishlar 21.06.2021 dan kuchga kiradi).

Xizmat ko'rsatish qoidalarida belgilangan tartibda Mijozdan olingan Ariza (og'zaki yoki yozma so'rov) asosida Tizimga kirishni bloklashda yoki Tizimni xavfsizligini ta'minlash uchun Bank tomonidan mustaqil ravishda amalga oshirilsa, Bank darhol bloklash uchun Arizada ko'rsatilgan Foydalanuvchining elektron pochta manziliga Internet Banking Tizimiga kirish bloklanganini tasdiqlash xabarini yuboradi.

Foydalanuvchi / Foydalanuvchilarning Tizimga kirishini blokdan chiqarish uchun Mijoz Bankka Foydalanuvchining / Foydalanuvchilarning kirish huquqini blokdan chiqarish to'g'risida rahbarning (yoki ishonchnoma asosida ishlovchi uning vakilining) imzosi va Mijozning muhri bilan tasdiqlangan yozma murojaatni taqdim etishi lozim.

5.2 Internet Banking Tizimi xizmatlari yoki Bank tomonidan Mijozga ko'rsatiladigan boshqa xizmatlar uchun Mijoz qarzdor bo'lgan taqdirda, Bank Foydalanuvchi / Mijozning Tizimga kirishini bloklash imkoniyati va huquqiga ega. Bunda:

- Bank Mijozga qarzni to'lash muddati ko'rsatilgan holda Internet Banking Tizimi orqali qarzdorlikning paydo bo'lishi to'g'risida ma'lumot yuboradi.
- Agar Mijozning Bank oldidagi qarzi belgilangan muddat ichida qaytarilmasa, Bank Mijozning Internet Banking Tizimiga kirishini bloklaydi.
- Qarz to'liq to'langandan so'ng, Bank joriy operatsion kunning oxiridan kechiktirmay Tizimga kirish uchun qo'yilgan blokni yechadi.

5.3 Agar foydalanuvchi kirish ma'lumotlarini (login, parol, OTP qurilmasi parolini) kiritishda belgilangan urinishlar sonidan oshib ketgan bo'lsa, Bank foydalanuvchining Tizimga kirishini bloklashga haqlidir:

- Agar Tizim sozlamalarida ko'rsatilgan kirish tafsilotlarini kiritish urinishlari soni oshib ketgan bo'lsa (5 martadan ortiq muvaffaqiyatsiz urinishlar bo'lsa) Tizim Foydalanuvchining Tizimga kirish huquqini avtomatik ravishda bloklaydi.
- Foydalanuvchining Tizimga kirishini blokdan chiqarish uchun Mijoz rahbarning (yoki ishonchnoma asosida ishlovchi uning vakilining) imzosi bilan tasdiqlangan kirish huquqini blokdan chiqarish to'g'risidagi yozma so'rovini Bankka taqdim etishi lozim.

6. Foydalanuvchi parolini tiklash

6.1 Foydalanuvchi parolini tiklash Bankning www.kdb.uz veb – sahifasida berilgan ko'rsatmalarga rioya qilgan holda Internet Banking Tizimining asosiy sahifasida “Parolni unutdingizmi?” tugmachasi orqali amalga oshiradi.

Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga “Internet Banking iDBA” masofaviy bank xizmatlarini ko’rsatish to’g’risidagi Shartnoma–ommaviy ofertaga
4-Ilova

Internet Banking Tizimida foydalanuvchini ro’yxatdan o’tkazish uchun Ariza

Ulanish

To’g’irlash

Internet Banking Tizimida Foydalanuvchini ro’yxatdan o’tkazish uchun Bankka quyidagi ma’lumotlarni taqdim etish kerak (yozma ravishda, rahbar tomonidan imzolangan va Mijozning muhri bilan birga):

Mijozning to’liq nomi:	
Mijozning statsionar telefon raqami:	
Mijozning mobil telefon raqami:	
Foydalanuvchining elektron pochta manzili:	
Foydalanuvchi (ismi - sha’rifi):	
Foydalanuvchi logini (kompaniya nomi yozilsa afzalroq)	
Foydalanuvchinig vaqtinchalik paroli (parolni keyinroq o’zgartirish mumkin)	

Kirish darajasi:	OTP qurilmasi	Bo’limlarga kirishni cheklash
<input type="checkbox"/> Ko’rish	OTP qurilmasi kerak emas	<input type="checkbox"/> So’rovlar / Yangi hisobvaraqli ochish
<input type="checkbox"/> Ijrochi	<input type="checkbox"/> Yangisini berish	<input type="checkbox"/> Oylik / Korporativ karta
<input type="checkbox"/> 1- Avtorizator		<input type="checkbox"/> So’mda to’lovlar
<input type="checkbox"/> 2- Avtorizator		<input type="checkbox"/> Chet el valyutasida to’lovlar
<input type="checkbox"/> 3- Avtorizator	<input type="checkbox"/> Mavjud bo’lganini ishlatish: OTP seriya № _____	<input type="checkbox"/> Konvertatsiya

Ushbu bilan amaldagi Ommaviy Oferta shartlarini – O’zbekiston Respublika Fuqarolik Kodeksining 360 – moddasida belgilangan tartibda masofadan turib “Internet Banking iDBA” bank xizmatlarini ko’rsatish to’g’risidagi Shartnomani qabul qilganimni/qilinganini e’lon qilaman/qilamiz va Ommaviy Ofertaning barcha shartlari, shu jumladan tomonlarning javobgarligi, Bank Tariflari va Ommaviy Oferta shartlariga o’zgartirish va qo’shimchalar kiritish tartibi menga/bizga to’liq hajmda taqdim etilganligi va tushuntirilganini ma’lum qilaman.

Rahbar:

Ismi – sha’rifi / Mansabi

Imzo

M. O’.
(talabga muvofiq)

Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga “Internet Banking iDBA” masofaviy bank xizmatlarini ko’rsatish to’g’risidagi Shartnoma–ommaviy ofertaga
5-Ilova

Dalolatnoma
bir martalik parol ishlab chiqaruvchi – qurilmani
qabul qilish va taqdim etish

Toshkent sh.

“ _____ ” _____ y.

Ushbu dalolatnoma “KDB Bank O’zbekiston” AJ (keyingi o’rinlarda – Bank) va _____ (keyingi o’rinlarda - Mijoz), Bankning mas’ul xodimi _____ to’lov hujjatlarini imzolash huquqiga ega bo’lgan Mijozning mas’ul xodimi _____ ga, seriya raqami _____ bo’lgan OTP qurilmasini (bir martalik parol ishlab chiqaruvchini) ishchi holatda taqdim etdi.

Taqdim etilgan OTP qurilmasi Mijozning mas’ul xodimi tomonidan ruxsatsiz foydalanishdan himoyalangan joyda saqlanishi kerak va faqat mas’ul xodim tomonidan Bankka o’tkazilgan elektron hujjatlar / to’lov hujjatlarini avtorizatsiya qilish (imzolash) uchun foydalanilishi kerak.

Bir martalik parol ishlab chiqaruvchi qurilmani qabul qilingani va taqdim etilganini tasdiqlaymiz :

Mijoz tomonidan:

Bank tomonidan:

Ismi – sha’rifi

Rahbar Imzosi

Ismi – sha’rifi

Rahbar Imzosi

Ismi – sha’rifi

Mas’ul xodim imzosi

M. O’.
(talabga muvofiq)

M. O’.